

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI**

SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI

Iqtisodiyot va boshqaruv fakulteti

«TASDIQLAYMAN»

**Iqtisodiyot va boshqaruv
fakulteti dekani**

dosent _____ F.Ahrorov

«_____» _____ 2014 yil

«Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va boshqaruvi» kafedrası

5340100-«Iqtisodiyot» (qishloq xo'jaligi) yo'nalishi bo'yicha

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: “G’alla xom ashyosi va birlamchi qayta ishlashdan
olingan mahsulotlar rentabelligi” (Jomboy tumani
Jomboydonmaxsulotlari O.A.J. misolida)**

**Bajardi: 5610100-«Ferma xo'jaligini
boshqarish va yuritish» yo'nalishi
IV bosqich talabasi**

J.Temirov

Ilmiy rahbar: dosent

T.Hayitov

Ilmiy maslahatchi: i.f.d., professor

O.Murtazayev

**Bitiruv malakaviy ish muhokama Kafedra mudiri, i.f.d.
qilindi va himoyaga ruxsat berildi professor _____ O.Murtazayev
«_____» _____ 2014 yil.**

SAMARQAND – 2014

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
1. MAVZUNI NAZARIY ASOSLASH VA ADABIYOTLAR SHARHI.....	6
2. RESPUBLIKA G`ALLA QAYTA ISHLOVCHI KORXONALAR RIVOJLANISH TARIXI VA TARMOQDA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHATLAR SAMARADORLIGI.....	15
2.1. O`zbekiston Respublikasi g`alla qayta ishlovchi korxonalar rivojlanish tarixi va tarkibiy tuzilmasidagi o`zgarishlar.....	15
2.2. O`zbekiston Respublikasi g`alla qayta ishlovchi korxonalarning mamlakat iqtisodiyotida tutgan o`rni va tarmoq samaradorligi.....	21
3. “JOMBOYDONMAHSULOTLARI” OAJ TAVSIFI VA G`ALLA QAYTA ISHLASH SAMARADORLIGI.....	29
3.1. “Jomboydonmahsulotlari” OAJga qisqacha tavsif va ishlab chiqarish iqtisodiy imkoniyatlari.....	29
3.2. Samaradorlik tushunchasi, mezoni, ko`rsatkichlari va ularning “Jomboydonmahsulotlari” OAJdagi hozirgi holati.....	38
4. “JOMBOYDONMAHSULOTLARI” OAJ ISHLAB CHIQARILGAN MAHSULOTLAR RENTABELLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	51
4.1. “Jomboydonmahsulotlari” OAJ mehnat resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlari.....	51
4.2. “Jomboydonmahsulotlari” OAJ asosiy vositalardan samarali foydalanish imkoniyatlari.....	58
4.3. Jamiyatda rentabellikni oshirish omillari va imkoniyatlardan oqilona foydalanish.....	62
5. G`ALLANI QAYTA ISHLASHDA HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZILIGI.....	69
XULOSA VA TAKLIFLAR.....	72
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.....	79

KIRISH

Mamlakatimizda keng koʻlamda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlardan koʻzlangan asosiy maqsad mamlakat aholisining barcha qatlamlarini oziq-ovqat mahsulotlariga boʻlgan talabini qondirishni ongli ravishda xisobga olgan holda mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish evaziga mamlakatimiz iqtisodiy mustaqilligini barqarorlashtirishdir.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish koʻp jihatdan qishloq xoʻjaligining rivojlanishi bilan birga qishloq xoʻjalik mahsulotlarini qayta ishlash sanoat korxonalarining rivojlangani bilan ham bogʻliqdir. Hususan, gʻallachilik qishloq xoʻjaligining eng muhim tarmoqlaridan biri boʻlib, aholini oziq – ovqat mahsulotlariga, chorvachilikni esa omuxta yemga boʻlgan talabini qondirishning asosi xisoblanadi.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq gʻallachilikni ustivor rivojlantirishga eʼtibor berilgani, gʻalla mustaqilligiga erishish boʻyicha “Milliy dastur”ning qabul qilinishi hamda gʻallachiligini rivojlantirishni davlat siyosat darajasigi koʻtarilgandan dalolatdir.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning 2006 yil 19 iyulda Respublika gʻallakorlariga yuborgan tabrigida taʼkidlaganidek, «Bizning necha oʻn yillar davomida orzu va havas qilib kelgan gʻalla mustaqilligiga erishganimizni keyingi yetti-sakkiz yil mobaynida amalda tasdiqlab kelayotganimizni, bunday ulkan yutuqning ahamiyati va mohiyatini gʻalla degan, non degan bebaho neʼmatdan bahramand boʻladigan har qaysi inson, shu yurtda yashaydigan har qaysi oila soʻzsiz chuqur anglaydi va yuksak baholaydi, desak, ayni haqiqatni aytgan boʻlamiz.

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yiliga nisbatan gʻalla-chilikda hosildorlik 4,5 barobar, yalpi hosil miqdori esa 6,5 barobar oshgani bu borada qanday taraqqiyot yoʻlini bosib oʻtganimizni, zahmatkash oʻzbek dehqonining qanday buyuk ishlarga qodir ekanini yaqqol koʻrsatib turibdi».

Prezidentimizning gʻalla yetishtirishga boʻlgan alohida eʼtiborlari 2008 yil 20 oktyabrda qabul qilingan “Oziq-ovqat ekinlari ekiladigan maydonlarni

optimallashtirish va ularni yetishtirishni ko'paytirish choratadbirlari to'g'risida"gi Farmonida o'z aksini topdi. G'allachilik samaradorligini oshirish uchun mavjud imkoniyat va salohiyatlardan samarali foydalanishda avvalo tarmoqda g'allaga davlat buyurtmasining saqlab qolinishi, ortiqcha g'allaning erkin sotilishi, resurslar bilan ta'minlashdagi turlicha yondoshuvlar mamlakatda g'alla bozorini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy munosabatlar tubdan takomillashtirilishini ustuvor vazifalardan biriga aylantirdi.

Bu esa, o'z navbatida, g'allachilik tarmog'ida shakllangan iqtisodiy munosabatlarning holati va samaradorlik darajasini tahlil etish, ularga ta'sir etuvchi omillarni chuqur o'rganish asosida g'allachilik tarmog'ini yanada rivojlantirish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish va soha samaradorligini oshirishga bag'ishlangan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishni taqozo etadi.

Mamlakat g'allachiligida belgilangan davlat siyosati g'alla ishlab chiqarishda imkon qadar mamlakat aholisini un va un mahsulotlari, sanoatni xom ashyo, chorvachilikni yem mahsulotlari bilan ta'minlash asnosida chetga ishlab chiqarilgan past navlardagi un mahsulotlarini eksport qilish va yaqin xorij jumladan, Qozog'iston Respublikasidan yuqori sifatli un mahsulotlarini import qilishdan iborat. Shu sababdan, tanlangan bitiruv malakaviy ishimizda istiqbolli rivojlanishini ta'minlash borasida g'alla va uni birlamchi qayta ishlash samaradorligini baholash, texnologik jarayonlarni takomillashtirish, g'alla yetishtiruvchi xo'jalik subyektlari bilan davlat o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlardagi qator muammolarga aniqlik kiritish, bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqqan holda, ularning nazariy va amaliy yechimlarini topish muhim ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatga ega. G'allachilikdagi mavjud iqtisodiy munosabatlardagi muammolarni hal qilmasdan turib, g'alla bozorini shakllantirish va tarmoqda yuqori samaradorlikka erishish mumkin yemas. G'allachilik tarmog'ini rivojlantirish bilan bog'liq muammolarni hal etishning zaruriyati, dolzarbligi va ilmiy-amaliy ahamiyatga egaligi ushbu mavzuni tanlanishiga asos

bo'ldi.

Bitiruv malakaviy ishimizning maqsadi – “Jomboydonmahsulotlari” OAJda g'alla xom-ashyosi va birlamchi qayta ishlashdan olingan mahsulotlar rentabelligining hozirgi holatini tahlil qilib, kelgusida ushbu korxonada samaradorlikni hususan rentabellikni oshirish borasida taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot ishini olib boorish avvalida quyidagi vazifalarni belgilab oldik:

- g'alla ishlab chiqarish va qayta ishlashning turli adabiyotlarda yoritilishini o'rganish;

- respublika va Samarqand viloyati xududida joylashgan g'allani qayta ishlovchi korxonalarga iqtisodiy-ijtimoiy tavsif berish va ushbu sohaning rivojlanish tarixi xamda xozirgi kunda olib borilayotgan islohotlar natijasini tahlil qilish;

- g'alla va birlamchi qayta ishlashdan olingan mahsulotlar rentabelligining hozirgi holati va unga ta'sir etuvchi omillarni tahlili yordamida baholash;

- kelgusida samaradorlikni hususan rentabellikni oshirish borasida ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

1. MAVZUNI NAZARIY ASOSLASH VA ADABIYOTLAR SHARHI

G'alla ishlab chiqarish Respublikamiz qishloq xo'jaligi va iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyati mamalakat aholisining keskin o'sish suratlarini hisobga olgan holda beqiyosdir. G'alla va uni qayta ishlavchi korxonalar samaradorligining ya'ni, ulardagi baholar, tannarx va boshqa iqtisodiy kategoriyalarning nazariy masalalari iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida turli darajada yoritilgan.

O'zbekistonda iqtisodiyot tarmoqlarining barcha javhalarini rivojlantirish va samaradorligini oshirishga, jumladan g'allani qayta ishlovchi korxonalarda ishlab chiqarishda resurs taminotini to'g'ri tashkil qilish, buning natijasida mehnat unumdorligini oshirish, tannarxni pasaytirish hamda qayta ishlash jarayonida resurslar tejamkorligini ta'minlash, yakuniy samaradorlik ko'rsatkichi xisoblangan rentabellikni oshirish, umuman pirovard mahsulotini ko'paytirish bilan birga istyemolchi talabini hisobga olgan xolda ishlab chiqarilayotgan pirovard mahsulot sifatini oshirish masalalariga agrar-iqtisodchi olimlardan X.M.Jalilov, A.S.Samutali, S.N.Usmonov, F.K.Kayumov, I.I.Raskin, L.I.Raskin, A.M.Jo'rayev, M.H.Husanov, F.Jo'rayev, N.S.Sanayev, D.K.Axmedov, E.J.Yusupov, R.V.Abdullayev, O.Murtazayev, M.Imamutdinov, N.S.Xushmatov va boshqalarning asarlari bag'ishlangan.

Respublikamizda g'allachilikning asosiy mahsulotlari rentabellik darajasini ko'tarishda omillardan oqilona foydalanish muammolari, g'alla, g'alla qayta ishlash mahsulotlari baholarining belgilanishi yuqoridagi ishlarda alohida-alohida o'rganilgan. Jumladan, qishloq xo'jaligida samaradorlikni yerning iqtisodiy bahosiga bog'lab G.G.Dobudoglo, M. Hoshimjanov va A.A.Abdug'aniyevlar o'rganishgan. G'allachilik agrosanoat majmuasida samaradorlik masalalari G'.Qudratovning ishlarida o'z ifodasini topgan.

Quyida malakaviy bitiruv ishini bajarish davomida foydalanilgan ayrim adabiyotlarga sharh berib o'tamiz:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi (asosiy qonuni). –T.: O'zbekiston, 2008.

Qishloq xo'jaligi iqtisodiyotini barqaror rivojlanishining dolzarb muamolari. O'zbekiston Respublikasining «Mulq to'g'risida», «Mulqlarni davlat tasarrufida chiqarish va xususiylashtirish», «Yer to'g'risida», «Ferma xo'jaligi to'g'risida», «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi qonun va kodekslarda hamda Respublika Vazirlar mahkamasi agrosanoat majmuining xujjatlarida ko'rsatib o'tilgan.

2. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Ferma xo'jaligi to'g'risida. (Yangi tahrirda). // Xalq so'zi, 26.08. 2004.

Ushbu qonunning maqsadi ferma xo'jaliklarining tashkil etilishi, faoliyati, qayta tashkil etilishi va tugatilishi sohasidagi munosabatlarini tartibga solishdan iborat bo'lib, unda ferma xo'jaligini tashkil etish, ularning huquqlari, majburiyatlari hamda mol-mulki, faoliyatining tashkil etilishi, davlat yo'li bilan va boshqa tarzda qo'llab-quvvatlash, tugatish asoslari ko'rsatilib o'tilgan.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 05.02.1999 54-sonli qarori Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom.

Ushbu Nizom xo'jalik yurituvchi subyektlar-yuridik shaxslarning, shuningdek, yuridik shaxs bo'lmagan holda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini aniqlashning yagona metodologik asoslarini belgilaydi. Nizom buxgalteriya hisobi va soliq solish maqsadlarida xarajatlarni hisoblab chiqishda paydo bo'ladigan tafovutlar hisobga olingan holda ishlab chiqilgan. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning raqobatbardoshligini aniqlash maqsadida ular faoliyatining xarajatlarini hisoblab chiqish va moliyaviy natijalarini aniqlash buxgalteriya hisobining asosiy maqsadi hisoblanadi. Soliq solinadigan daromad (foyda) xo'jalik yurituvchi subyektlar xarajatlarining ayrim moddalarini soliq haqidagi qonunlarga muvofiq soliq solinadigan bazaga kiritish yo'li bilan aniqlanadi.

4. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. -T.: O'zbekiston, 2011. – 440 b.

Prezident I.A.Karimov Respublikamiz mustaqilligini qulga kiritishdagi jonbozligi haqida mazkur kitobda bayon etilib, unda paxtachilikda mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi omillar haqida ham to'xtalib o'tilgan: «...Paxta hosilini mashinada terishga hamma joyda ham puxta tayyorgarlik ko'rilmayapti. Yig'im-terim texnikasini tayyorlash muddatlari cho'zilib ketmokda. Hali to'rt mingga yaqin paxta terish mashinasi ishga tayyor qilingan emas. G'o'za bargini to'ktirish uchun yerda ishlatiladigan apparatlar ham tayyor emas. Bu kamchiliklarning hammasi joylarda tashkilotchilik ishlari bo'shashtirib yuborilganining natijasidir. Ko'p kishilarda xotirjamlik va loqaydlik paydo bo'layotganligi bizni, ayniqsa, tashvishga solmoqda. Ishimizdagi nuqsonlarni bahordagi sovuq bilan yashirib ketamiz, degan kishilar xato qiladilar...

...Yana bir muhim masala — paxta narxi masalasidir. Biz 1990 yil plani loyihasi bilan Ittifoq organlariga ikki marta uchrashdik. Butun mas'uliyatni zimmamga olib, hozir shuni ayta olamanki, paxta narxi masalasi yaqin oylar ichida ko'rib chiqiladi. Bu muammoni hal qilishimiz uchun, hisob- kitoblarga ko'ra, kamida 1,5 milliard so'm talab qilinadi. Respublikamizning deyarli butun aholisi manfaatlari va farovonligi ana shu muammoni hal qilish bilan bog'liq....». Aynan shu fikrlardan ham ko'rinib turibdiki, hozirgi kunda mamlakatimiz YaIMning 17,5%ini tashkil etuvchi qishloq xo'jaligi, 90-yillarda aynan mamlakat taqdirini belgilab beruvchi tarmoq sifatida faoliyat olib borgan.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi //Xalq so'zi. 18.01.2014.

Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining har bir nutqida qishloq xo'jaligining hozirgi xolati va uning barqaror rivojlanishi mavzusiga takror-takror to'xtalib o'tadi. Mazkur nutqda ham, jumladan, shunday fikrlarni

bildirib o'tadi: "...Ruxsatingiz bilan, mamlakatimiz qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan o'zgarishlarga alohida to'xtalmoqchiman.

Avvalo, quyidagi raqamlarga e'tiboringizni qaratmoqchiman. 2013-yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2000-yilga nisbatan 2,3 barobar ko'paydi. Faqat o'tgan yilning o'zida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish 6,8 foizga, jumladan, dehqonchilik – 6,4 foizga, chorvachilik – 7,4 foizga o'sdi.

Aytish kerakki, izchil yuqori o'sish sur'atlari bilan birga, yalpi ichki mahsulotning umumiy hajmida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ulushining kamayish tendensiyasi kuzatilmoqda. Masalan, 2000-yilda bu boradagi ko'rsatkich 30,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2013-yilda faqatgina 16,8 foizni tashkil etdi.

Buni avvalambor iqtisodiyotimizda amalga oshirilayotgan chuqur tarkibiy o'zgarishlarning, mamlakatimiz bir paytlardagi agrar respublikadan bosqichma-bosqich ravishda sanoati rivojlangan zamonaviy davlatga aylanib borayotganining yaqqol tasdig'i sifatida qabul qilishimiz darkor.

Qishloq xo'jaligining o'zida keng ko'lamli o'zgarishlar va sifat jihatdan yangilanishlar yuz bermoqda.

Yurtimizda ekin maydonlarini optimallashtirish va qishloq xo'jaligi ekinlarini rayonlashtirish borasida har tomonlama puxta o'ylangan siyosat olib borilayotgani eng muhim xomashyo va eksportbop mahsulot bo'lmish paxta yetishtirishning nisbatan barqaror hajmini saqlagan holda, boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishni bir necha barobar ko'paytirish imkonini berdi. Eng muhimi, xalqimizni oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'liq ta'minlashga zamin tug'dirdi, kerak bo'lsa, ularni chet mamlakatlarga eksport qilishga imkon bermoqda. Xususan, g'alla yetishtirish 2000-yilga nisbatan 2 barobar, kartoshka – 3,1-marta, sabzavot – 3,2 barobar, uzum – 2-marta, go'sht va sut – 2,1 karra, tuxum – 3,4 barobar oshdi.

O'tgan 2013-yilda mirishkor dehqon va fermerlarimizning fidokorona mehnati bilan misli ko'rilmagan natijalarga erishildi – 7 million 800 ming

tonna g'alla, 8 million 400 ming tonna sabzavot yetishtirildi. Mamlakatimizning ulkan xirmoniga 3 million 360 ming tonnadan ortiq paxta xomashyosi yetkazib berildi.

Fursatdan foydalanib, bugun mana shu yuksak minbardan turib, o'zining peshona teri, qadoq qo'llari bilan mamlakatimiz boyligiga boylik qo'shayotgan, el-yurtimiz farovonligini ta'minlayotgan barcha qishloq mehnatchilariga o'z nomimdan, xalqimiz nomidan chuqur minnatdorlik va hurmat-ehtirom bildirishni ham qarz, ham farz, deb hisoblayman".

6. Karimov I. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – Prezident Islom Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2010 yil 30 yanvar.

Ma'ruzada o'tgan yil –Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili deb e'lon qilinishi va Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni bosqichma-bosqich chuqurlashtirish, fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, imtiyozlar berish, qishloqda shakllanadigan yangi mulkiy munosabatlarni, o'rta tabaqa–mulkdorlarning, tadbirkorlarning va ishbiarmonlarning manfaatlarini ishonchli himoya qilishga e'tibor berilishi natijasida murakkab iqlim sharoitiga qaramasdan 7,3 mln tonna g'alla, jumladan 6,6 mln tonna bug'doy yetishtirilganiga alohida e'tibor qaratiladi.

7. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi: Prezident Islom Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi// Xalq so'zi. 22.01.2011

Mazkur ma'ruzada Prezidentimiz tomonidan qishloq xo'jaligida olib brilayotgan iqtisodiy islohotlarga to'xtalib o'tilib, jumladan shunday fikrlar bildirilgan:

«... Qishloq xo'jaligini isloh qilish, fermer xo'jaliklariga biriktirilgan yer uchastkalarini optimallashtirish, paxta va g'allaning xarid narxlarini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan izchil ishlar natijasida iqtisodiyotimizning agrar sektorida tarkibiy sifat o'zgarishlari yuz bermoqda.

Paxta va g'alla kabi strategik muhim qishloq xo'jaligi ekinlari bilan bir qatorda, meva-sabzavotchilik, chorvachilik, parrandachilik va baliqchilik sohalarida ham ishlab chiqarish hajmi sezilarli darajada o'sdi, qayta ishlash tarmoqlari va ichki bozorni sut, go'sht, kartoshka, sabzavot kabi eng muhim oziq-ovqat hamda boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan yanada ko'proq to'ldirish uchun mustahkam xomashyo bazasi yaratilmoqda».

8. Jo'rayev F. Qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish. –T.: Istiqlol, 2004.

Mazkur darslikda mamlakat qishloq xo'jaligida xo'jalik yuritish subyektlarini tashkil etish turtibi, ularning huquqlari, vazifalari va boshqalar ko'rsatib o'tilgan. Darslikda qishloq xo'jaligi tarmoqlarini samarali tashkil etish bo'limlari ham mavjud. Shuningdek, darslikda g'allachilikni tashkil etish va samaradorligini oshirishga ham to'xtalib o'tilgan.

9. Ismoilov A., Murtazayev O. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. –T.: Moliya, 2005.

Mazkur darslikning qishloq xo'jalik iqtisodiyotini umumiy holda tavsiflab berish bilan birgalikda qishloq xo'jaligidagi ayrim sohalar haqida muhim ma'lumotlar berilgan. Jumladan, darslikning 23-bobi «G'allachilikning samaradorligini oshirish imkoniyatlari» deb nomlanib, g'allachilik sohasi haqida: «... G'allachilik o'simlikchilikning yetakchi tarmog'i hisoblanadi va aloxida xalq xo'jaligi ahamiyatiga ega. O'zbekiston aholisi iste'mol etadigan oziq-ovqatlarning katta kalloriya hamda oqsil hisobida olingan g'alla mahsulotlarining hissasi 50-60 foizni tashkil etadi» kabi fikrlar bildirilgan.

10. Musayev D., Yaxshilikov Yo., Yusupov Q. O'zbekistonda oziq-ovqat havfsizligi. –T.: Mega Basim, 2010.

Mazkur nashr mualliflari tomonidan bildirilgan fikrlar BMT, jumladan, BMTTD hamda BMTga a'zo davlatlarning rasmiy nuqtai nazarlariga mos kelmasligi mumkin. BMTTD BMTning rivojlanish sohasidagi global tarmog'i bo'lib, o'z oldiga a'zo mamlakatlarga bilim, tajriba va mablag' manbalaridan foydalanish imkoniyatlarini yaratish orqali insonlar hayotida ijobiy o'zgarishlar yasash maqsadini qo'ygan. Biz 166 mamlakatda faoliyat yuritamiz; ushbu mamlakatlarga rivojlanishga oid global va milliy muammolarning yechimini topishlariga ko'maklashamiz. Mamlakatlar o'z salohiyatlarini rivojlantirish jarayonida BMTTD xodimlari va uning hamkorlari tajribasi hamda bilimlaridan foydalanadilar.

Mazkur asarda O'zbekistonda g'alla yetishtirishning oziq-ovqat mustakilligini ta'minlashdagi ahamiyati, mustaqillik yillarida g'alla yetishtirish miqdorining oshib borishi va importning kamayib borganligi haqida to'xtalangan.

Bug'doy yetishtirish ko'payganligi tufayli 2003 yilga kelib O'zbekiston ichki iste'molida g'alla importi koeffitsiyenti keskin kamaydi. FAO tomonidan tayyorlangan, OB bo'yicha to'plangan ma'lumotlarga ko'ra (1992 y. bo'yicha) O'zbekiston ichki iste'molida g'alla importi koeffitsiyenti 82,2% ni tashkil etgan (964,0 ming tonna yetishtirilgan bug'doyga nisbatan 4448,72 ming tonna import qilingan bug'doy, eksportsiz). (ushbu koeffitsiyent taqsimlangan [ishlab chiqarish + import – eksportga], va 100% ga ko'paytirilgan holda hisoblab chiqilgan). 2003 yilda xuddi shu nisbat faqat 4,5% ga teng bo'lgan. Don mustaqilligi siyosati g'alla yetishtirishni samarali tarzda ko'paytirishga erishishga ko'maklashganiga qaramay, uning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy xarajatlaridan kelib chiqqan holda to'laqonli muvaffaqiyati haqida xulosa chiqarish mumkin. Bug'doy uchun ajratilgan maydonlarning kengaytirilishi boshqa g'alla ekinlari va boshqa ekinlarni yetishtirish imkoniyatini kamaytirdi.

11. Oripov R.O., Xalilov N.X. O'simlikshunoslik. Darslik. –Samarqand, 2005

Mazkur darslikda o'simlikshunoslikning, xususan, g'allachilikning nazariy asoslari, madaniy o'simliklarning kelib chiqish markazlari va ular genotiplarining shakllanish sharoitlari, biologik azot, o'simliklarning optimal namlik bilan

ta'minlanishi, o'simliklarning fotosintez faoliyati, aralash va qo'shib ekilgan o'simliklarning mutanosibligi, urug'shunoslik, dala ekinlarining xalq xo'jaligidagi ahamiyati, tarixi, botanik va biologik xususiyatlari, yetishtirish texnologiyalari so'nggi yillarda mamlakatimiz qishloq xo'jaligidagi islohotlar, o'zgarishlar hamda fandagi yutuqlar hisobga olingan holda yoritilgan.

12. Ortiqboyev P., To'ramurodov X. G'allachilikda begona o'tlarga qarshi kurashish samaradorligi//O'zbekiston qishloq xo'jaligi. –Toshkent, 2011. -№2. - 24-b.

Mazkur maqolada muallif tomonidan hozirgi kunda g'alla yetishtirishda hosildorlikning kamayishiga sabab bo'lib kelayotgan begona o'tlarga qarshi kurashishda qullanib kelinayotgan gerbisidlar, g'allani ekish usullarida ularni ishlatish tartibi va Biostar 75 gerbisidining 30-35 kun ichida 76-91% begona o'tlarni nobud qilishi bayon etilgan.

13. Ergashev R.X. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. –T.: EXTREMUM PRESS, 2011. -416 b.

Darslikda qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti fanining nazariy va amaliy asoslari kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari asosida bayon etilgan bo'lib, agrar iqtisodiy islohotlar natijasida qishloq xo'jaligida xo'jalik yuritishning erkin bozor shakllariga o'tish va mustaqil tovar ishlab chiqaruvchilar salmog'i o'sib borishi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari va qabul qilingan qonunlar, Prezident farmonlari hamda boshqa me'yoriy hujjatlarga asoslangan. Qishloq xo'jaligida mavjud yer-suv, moddiy-texnika va mehnat resurslaridan samarali foydalanishning hozirgi holati, qishloq xo'jalik korxonalarining barqaror shakllanishi, iqtisodiy samaradorligi ilmiy jihatdan asoslangan holda tahlil qilinib, istiqbolda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining barqaror sur'atda rivojlanish yo'nalishlari ochib berilgan. Shuningdek, 16-bobida g'allachilik iqtisodiyoti va davlatning g'alla siyosatiga to'xtilib o'tilgan.

14. Eshmirzayev Q., Amanturdiyev B. G'allazorlardagi erta bahorgi yumushlar//O'zbekiston qishloq xo'jaligi. –Toshkent, 2010. -№2. -3-b.

G'alla qishlovdan chiqqanda Respublikamizning aksariyat g'allazorlarida 1-2 tagina barg bilan chiqishi, ularga bahorgi ishlov berishni jadallashtirish lozimligini, bunda zarur agrotexnik tadbirlarni amalga oshirishi lozimlagi, 550-600 m³ suv bilan sug'orish, mineral o'g'itlar berishda alohida e'tibor berish qaratilishi makolada bayon etilgan.

15. Qilichev A. G'alla hosildorligi va g'alla sifati ekish muddati va me'yorlariga bog'liqligi// O'zbekiston qishloq xo'jaligi. –Toshkent, 2008. -№6. - 15-b.

Mazkur maqolada Samarqand viloyatida g'alla ekinlari paxta maydonlaridan bo'shagan maydonga ekilayotganligi bu vaqtda esa, g'alla ekish muddatlarining maqbul vaqtlari o'tib ketishi yoritilgan. G'alladan optimal hosil olish uchun oktyabr oyining 10-20 kunlarida urug' ekish eng maqbul hisoblanadi.

2. RESPUBLIKA G`ALLA QAYTA ISHLOVCHI KORXONALAR RIVOJLANISH TARIXI VA TARMOQDA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHATLAR SAMARADORLIGI

2.1. O`zbekiston Respublikasi g`alla qayta ishlovchi korxonalar rivojlanish tarixi va tarkibiy tuzilmasidagi o`zgarishlar

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 22 dekabrda "Xo'jalik boshqaruv organlari tizimini isloh qilish to'g'risida"gi buyrug'iga va O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2004 yil 6 avgustdagi qaroriga asosan "O`zdonmahsulot" Davlat aktsionerlik korporatsiyasi "O`zdonmahsulot" ("O`zdonmahsulot" A.K.) ochiq turdagi aktsionerlik kompaniyasiga aylantirildi.

"O`zdonmahsulot" A.K. faoliyatining asosiy yo'nalishi va vazifalari sifatida quyidagilar belgilab berilgan:

- O`zbekiston Respublikasi xukumatining qarorlariga asosan davlat ehtiyoji uchun don va urug'liklarni sotib olish, joylashtirish va saqlashni ta'minlash;
- Iqtisodiyot tarmoqlari va respublika aholisining ehtiyojini qondirish maqsadida turli un navlari, yorma, ozuqa yem, shuningdek non, makaron va shirinlik mahsulotlarini ishlab chiqarishni tashkillashtirish;
- Non mahsulotlari tarmog'ining shirkatlar va fermerlik xo'jaliklari o'rtasidagi o'zaro aloqa mexanizmini mukammallashtirish hamda donni qabul qilish, uning sifatini aniqlash va hisoblash, donning sifatini doimiy nazorat qilish tizimini yaratishda bevosita qatnashish;
- Non mahsulotlari tarmog'idagi korxonalarni modernizatsiyalashtirishda qayta texnikaviy jihozlanishda ko'mak berish, bu maqsad uchun chet el investitsiyalarini keng jalb qilish; non mahsulotlari tarmog'idagi korxonalarga xodimlarni tayyorlash va malakasini oshirishda korxonalarni axborot bilan ta'minlash.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan qarorga muvofiq, qishloq xo'jaligi korxonalari bilan don va urug' sotib olish hamda davlat zahirasidagi iste'mol bug'doyini faqatgina "O`zdonmahsulot" A.K.ga qarashli korxonalargina saqlash xuquqiga egadirlar.

Tarkibiy qayta tuzilish va egalik shaklining o'zganini hisobga olgan holda "O`zdonmahsulot" A.K. tarkibida 44 ta korxona (25 ta korxona o'z bo'limlariga

ega) faoliyat olib bormoqda. “O`zdonmahsulot” A.K. tarkibidagi non mahsuloti korxonalari va ularning bo`limlari O`zbekistonda etishtiriladigan don mahsulotlari zahirasini g`amlash, uni saqlash va qayta ishlash tizimida etakchi bo`lib hisoblanadilar.

“O`zdonmahsulot” Aksionerlik Kompaniyasi Respublikamiz non mahsulotlari tarmog`ining doimiy rivojlanib borayotgan bir qismi bo`lib, uning tarkibiga quyidagilar kiradi:

- Davlatga zarur bo`ladigan don va urug` zahiralarini korxonalardan sotib olish, joylashtirish va saqlash;
- Iqtisodiyotdning sanoat tarmoqlarini va respublika aholisini yuqori sifatli un, yorma, omuhta yem, shuningdek, non mahsulotlari, makaron va shirinlik mahsulotlari bilan ta`minlash;

Don etishtirish va uni qayta ishlash jarayoni butun bir tarmoq tizimi sifatida 3 asr mobaynida davom etib kelmoqda. Hozirgacha donchilik tarmog`ida 19 asrda qurilgan tegirmonlarni uchratish mumkin. Albatta ularning ko`rinishlari tanib bo`lmas darajada o`zgargan. Suv va par yordamida ishlaydigan tegirmonlar o`rniga yuqori ishlab chiqarish quvvatiga ega bo`lgan zamonaviy tegirmonlardan foydalanila boshlandi.

1885 yili “Toshkent non shaxri” deb nomlangan tegirmon ishlab chiqilgan bo`lib u 25 yil (1910 yilgacha) davomida kuniga 30 tonna donni qayta ishlagan. Bu tegirmon texnik jihozlanishi bo`yicha Turkiston o`lkasida eng mukammal hisoblangan. 1910 yil O`zbekistondagi ilk par bilan ishlaydigan tegirmon qurildi (hozirgi “G`alla-Alteg” A.K.).

Don tayyorlash sistyemasi tizimini boshqarishning o`zi 1867 yili Toshkentda Nazorat idorasini tashkil etilishi bilan bog`liq. Nazorat idorasi davlat ehtiyoji uchun non mahsulotlari zahirasini tayyorlash bilan shug`ullangan va xuddi jismoniy shaxslar kabi erkin savdo shaklida non mahsulotlarini sotib olgan. Don zahirasini tayyorlash ko`p hollarda katta hajmlarda donni yig`ib, unga birlamchi qayta ishlov berish va saqlashni tashkillashtirgan vositachilar orqali amalga oshirilgan.

1918 yildan boshlab Turkiston o'lkasida non monopoliyasi o'rnatilib u sovet xukumati davrigacha davom etdi. Don zahiralari tayyorlash maqsadida barcha viloyatlarda sotuv bo'limlari ochildi. Ular don tayyorlash kompaniyasiga boshlanishidan toki yakunlanishigacha bevosita rahbarlik qildilar. Don tayyorlash natural soliq shaklida amalga oshirildi. Davlatga natural soliq ko'rinishidagi va qat'iy narx asosida don topshirish maqsadida tyemir yo'l stantsiyalari yaqiniga 127 ta to'kish punktlari ochildi. Buning natijasida ushbu punktlarning bir nechtasi "Zagotzerno" tashkilotining tarqatuvchi va tayyorlov bazalari tarmoqlari uchun asos bo'lib xizmat qildi.

1924 yildan boshlab sotuvdan olinadigan soliqlar bekor qilindi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari zahirasini tayyorlash 1924 yil hosilidan boshlab zahiralari Vazirligi tizimi tomonidan xarid qilish formasida amalga oshirilgan.

O'zbekistonning Zahiralari Vazirligi o'zining bir nechta izdoshlariga ega bo'lib ular "Turknarkomprod" va 1932 yilda mavjud bo'lgan "Aziaxleb"lardir. 1956 yil 20 iyuldan boshlab soyuz – respublikasi O'zSSR Don mahsulotlari Vazirligi tashkil qilinib "Aziaxleb" "Uzzagotzerno" respublika kontorasiga va "Uzglavmuka" trestiga bo'lindi. Agar 1922 yilda sanoat bo'limi 7 ta tegirmonga ega bo'lgan va O'zbekiston aholisi 4 million kishini tashkil qilgan bo'lsa, 1943 yilga kelib tegirmonlar soni 10 taga etdi va 300 tonnaga yaqin turli navdagi un va yorma mahsulotlari ishlab chiqarila boshlagan.

1956 yil non mahsulotlari Vazirligining tashkil etilganda uning tarkibida 73 ta tayyorlov punktlari, 3 ta ombor bazalari, 3 ta urug' saqlash omborlari, 3 ta yorma zavodi 15 ta yuqori navli un va chiqindi chiqaradigan tegirmonlari mavjud edi. Navli un chiqaruvchi 3 ta tegirmon Toshkent, Quva, Farg'ona, Andijon va Samarqandda joylashgan edi. Buxoro, Jizzax, Qarshi, Kattaqo'rg'on, Samarqand, Urganch, Termiz va Nukusda chiqindini qayta ishlovchi tegirmonlar o'rnatildi. Guruch, javdari va bug'doy yarmasini Toshkent va Samarqand shaxarlarida joylashgan yorma zavodlari ishlab chiqarishar edi.

Aholining unga bo'lgan talabi 1 million 300 ming tonna bo'lganda tegirmonlar faqatgina 360 ming tonna ya'ni ehtiyojning 28 foizigina qondirilgan

edi. 1958 – 1964 yillar davomida qo'shimcha yana 10 ta navli un chiqaruvchi tegirmonlar ishga tushirildi. 1956 yilning ikkinchi yarmida sanoatning omuxta yem bo'limi rivojlana boshlandi.

1960-1961 yillar o'rtasida Farg'ona, Qo'qon, Toshkent, Asaka, Quva (Fedchenko), Jizzax, Samarqand, Kattaqo'rg'on, Kogon, Buxoro, Qarshi, Urgench, Nukus, Termiz va Qiziltepada 16 ta kichik hajmli omuxta yem zavodlari ishga tushdi. 1961 yil xukumat tomonidan "Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini davlatga sotishni qayta shakllantirish va puxta tashkillashtirish to'g'risida" gi muhim qarori qabul qilindi. Bu qarorga binoan don sotib olish faqatgina shartnoma tuzish orqali bajarildi va qolgan barcha usullar ta'qiqlandi.

1961 yil 24 martda O'zbekiston Non mahsulotlari Vazirligi faoliyati tugatilib uning o'rnida Zahiralar Vazirligi tashkil qilindi. Sotib olish va sifat bo'yicha davlat inspeksiyasini davlat bosh nazoratchisi boshqaradi.

Qayta tuzilgan vazirlik sovet xukumati davrida faoliyat olib borgan eng katta zahira tayyorlovchi tashkilotlardan biri sanalgan.

1965 yil may oyida O'zbekiston non mahsulotlari va omuxta yem Vazirligi qayta tuzildi. Yangi tuzilgan vazirlik o'zining asosiy e'tiborini boshlangan ishlarni tugatishga, faoliyat olib borayotgan korxonalarni rekonstruktsiyalashga va og'ir qo'l mehnatini mexanizatsiyalashga qaratdi. Ba'zi zavodlarda unni qadoqsiz saqlash masalasi maxsus qurilgan idishlar yordamida muvaffaqiyatli hal etildi. Unni idishsiz saqlash, chiqarish va tashish og'ir qo'l mehnatini engillashtirilgani va qoplarga sarf-xarajatni kamaygani hisogiba yuqori samaraga erishildi. 1965-69 yillar orasida omuxta yem sanoati keng rivojlandi. Ushbu yillarda ishlab chiqarilgan omuxta yem mahsulotlariga antibiotiklar, vitaminlar va mikroelementlar qo'shib boyitildi.

1970 yili vazirlik faoliyati tugatilib uning o'rniga Zahiralar Vazirligi qayta tashkil etildi. Keyingi 10 yil mobaynida asosiy ishlab chiqarish fondlari keskin rivojlandi, ishlab chiqarishning texnologik darajasi yaxshilandi va ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmi oshdi. 1980 yilga kelib un ishlab chiqarish 1969 yilga nisbatan 3,3 marta, yorma 18,1 marta, omuxta yem 11,6 marta o'sdi. Yuqori

sifatli un ishlab chiqarishning umumiy hajmi 1970 yil 49.2% dan 1980 yil 83.7%ga oshdi.

1981-1985 yillar o'rtasida Quva, Navoiy, Farg'ona va Uchqo'rg'onda umumiy hajmi kuniga 1300 tonna unni qayta ishlaydigan, 240,2 ming tonna sig'imli elevatorga ega tegirmonglar ishga tushdi. Shu yillarning o'zida 11 ta tegirmon qayta ta'mirlanib ularning ma'naviy eskirgan qismlari yangilandi. Bundan tashqari boshqa un zavodlarida 13 ta un tegirmoni va 5 ta guruch tegirmoni qayta jihozlandi va ularning quvvati mos ravishda kuniga 300 va 230 tonna donni qayta ishlashga erishildi.

1986-90 yillarda agrosanoat majmuasida yangitdan qayta tashkillashtirish amalga oshirildi. 1985 yil 14 oktyabrda Zahiralar Vazirligi tugatilib uning asosida soyuz – respublikasining Non mahsulotlari Vazirligi tashkil qilindi. Yarim yildan so'ng, ya'ni, 1986 yil mart oyida vazirlik yana qayta tuzilib, uning tarkibiga non yopadigan, makaron va shirinlik ishlab chiqarish sanoati ("Uzxlebprom") va 22 ta unga qarashli non yopadigan bo'limlar ish boshladi. Yangi vazirlik faoliyati tugatilgan vazirlik bajargan vazifalarni bajardi. 1987 yildan 1990 yilgacha ishlab chiqarish quvvatini oshirish davom ettdi. Quyidagilar amalda joriy qilindi:

- Oqtosh, Oqoltin va Qo'rg'ontepaning umumiy quvvati kuniga 1900 tonna bo'lgan 7 ta navli tegirmoni yuqori ishlab chiqarish qurilmalari bilan jihozlandi;
- Nukus, Shovot, Sirdaryo va Urganchda umumiy quvvati kuniga 100 tonna bo'lgan yorma zavodi ishga tushdi;
- Umumiy quvvati kuniga 1910 tonna bo'lgan 7 ta tegirmon;
- Oqoltin va Xanqada kuniga 630 tonna, Do'stlik va Uchqo'rg'onda 250 tonnadan hamda Yakkabog'da 100 va Muzrabod (Gagarin)da 50 tonna ozuqa yem ishlab chiqaradi;

12 ta tegirmonda eskirgan qurilmalarni yangi, yuqori ishlab chiqarish quvvatiga ega, umumiy quvvat kuniga 573 tonna donni qayta ishlay oladigan texnik qurilmalar bilan qayta jihozlash amalga oshirildi. Xuddi shundan ishlar 6 ta yorma tsexlarida ham bajarildi. Shu yilning o'zida 300 tonnadan ortiq quvvatga ega bo'lgan elevatorlar ishga tushirildi.

1987-1990 yillarda ishga tushirilgan un zavodlarining katta quvvatda ishlashi, aholining o'sha davrdagi unga bo'lgan ehtiyojini to'la qondirdi va non mahsulotlari tarmog'ining rivojlanishida yakuniy bosqich bo'lib xizmat qildi.

Shu yillarning o'zida non mahsulotlari vazirligi "O'zbeknonmahsulot" Davlat kontserniga aylantirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 22 aprel oyidagi buyrug'iga asosan, "O'zbeknonmahsulot" Davlat kontserni bir nomli davlat aktsionerlik korporatsiyasiga o'zgartirilishi tarmoq rivojlanishida muhim o'rin tutdi. Qonun tarmoqda xususiylashtirish bo'yicha tashkiliy jarayonni boshlab berdi.

1995-1998 yillar davomida 13 ta yorma tsexlari, 30 ta ozuqa yem va 52 ta un zavodlari xususiylashtirildi. Bu korxonalar yiliga 300 ming tonnadan ortiq yorma, 3 million tonnadan ortiq ozuqa yem va un mahsulotlarini ishlab chiqarib, respublika aholisi ehtiyojini qondirdi.

Zahira tayyorlash, donni saqlash va qayta ishlash, o'rtadagi keraksiz tizimlardan xalos bo'lish, tarmoqning bozor munosabatlarini chuqurlashtirish, xususiylashtirish va chet el investitsiyasini jalb etish jarayonini jadallashtirish maqsadlarida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2004 yil 6 avgustdagi qaroriga muvofiq "O'zdonmahsulot" Davlat aktsionerlik korporatsiyasi ochiq turdagi "O'zdonmahsulot" aktsionerlik kompaniyasiga aylantirildi. Avvalgidek uning vazifasiga davlat ehtiyoji uchun don va urug'liklarni sotib olish, joylashtirish va saqlashni ta'minlash hamda iqtisodiyotning tarmoqlari va respublika aholisining un va un mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish kiradi.

2.2. O`zbekiston Respublikasi g`alla qayta ishlovchi korxonalarning mamlakat iqtisodiyotida tutgan o`rni va tarmoq samaradorligi

2013 yil yakunlariga ko`ra tizim korxonalari tomonidan tarmoq oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarishda qator ijobiy ishlar amalga oshirilganligi, jumladan, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi taqqoslama narxlarda o'sish sur'ati 2012 yilga nisbatan 105,5 foizni tashkil etgan.

Tarmoq korxonalarini modernizasiyalash va texnik qayta jihozlash ishlari bo'yicha tasdiqlangan Dastur asosida 36ta loyiha amalga oshirilib, 34,1 mlrd.so'm mablag' o'zlashtirilgan.

Vazirlar Mahkamasining "Sanoatda ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish va mahsulot tannarxini pasaytirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2012 yil 28 noyabrdagi qarori asosida tarmoqda ishlab chiqariladigan mahsulotlarning tannarxini kamaytirish bo'yicha ishlab chiqilgan kompleks chora-tadbirlarga asosan 2013 yilda 15,8 mlrd.so'm miqdorida mablag' tejalganligi quvonarli holatdir.

2012 yilda esa Respublika g'allani qayta ishlovchi korxonalar xukumat tomonidan tarmoq oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarishda qator ijobiy ishlar amalga oshirishgan, jumladan, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi taqqoslama narxlarda o'sish sur'ati 2011 yilga nisbatan 110,4 foizni tashkil etgan.

Tarmoq korxonalarini modernizasiyalash va texnik qayta jihozlash ishlari bo'yicha tasdiqlangan Dastur asosida 19 ta loyiha amalga oshirilgan. Vazirlar Mahkamasining "Sanoatda ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish va mahsulot tannarxini pasaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2012 yil 7 martdagi qarori asosida tarmoqda ishlab chiqariladigan mahsulotlarning tannarxini kamaytirish bo'yicha ishlab chiqilgan kompleks chora-tadbirlarga asosan 2012 yilda 25,6 mlrd.so'm miqdorida mablag' tejalishiga erishilgan.

Kasanachilik asosida hamda yangi ish o'rinlari yaratish bo'yicha rejalar ortig'i bilan bajarildi.

Sohaga oid kasb-hunar kollejlari bitiruvchilaridan 506 nafari, boshqa yo'nalishlar bo'yicha bitiruvchilardan 285 nafari, jami 791 nafar kollej

bitiruvchilari tarkibdagi korxonalarga ishga joylashtirilishi yosh mutahassislarni ishlab chiqarishga jalb qilish borasida olib borilayotgan islohotlarning natijasi sifatida gavdalanadi.

Tarkibdagi korxonalarda ishlovchi ishchi-xodimlarni ijtimoiy himoyalash, ularning turmush sharoitlarini yaxshilash, mehnat samaradorligini oshirishda qulayliklar yaratish maqsadida 2012 yilda qishloq massivlarida namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan uy-joylarni xarid qilish istagida bo'lgan ishchi-xodimlar tomonidan 189ta uy-joy xarid qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi topshirig'iga asosan "O'zdonmahsulot" aksiyadorlik kompaniyasi ijro apparatidagi Nazorat-tahlil boshqarmasi negizida Nazorat-tahlil, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari boshqarmasi tashkil qilindi.

Ushbu tarkibiy bo'linma kompaniyada axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish maqsadida quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- kompaniya markaziy apparati va tizim korxonalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish, ma'lumotlarni saqlash va ularga ishlov berish;

- axborot tizimlari va resurslarining axborot-texnologiyalari bo'yicha o'zaro munosabatlarini ta'minlash, interaktiv davlat xizmatlarini ko'rsatish;

- barcha tarkibiy bo'linmalarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish va rivojlantirish jarayonlarini me'yoriy-huquqiy, texnologik va axborot-tahlil ma'lumotlar bilan ta'minlash;

- kompaniya rasmiy veb-sahifasini takomillashtirish va doimiy faol ishlashini ta'minlash;

- axborot resurslari va axborot tizimlarini himoya qilish bo'yicha texnik infratuzilmasini joriy qilish va rivojlantirish.

"O'zdonmahsulot" AK tizimida tarmoqning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish natijalari.

I. Mahsulot ishlab chiqarish:

“O’zdonmahsulot” AK tizim korxonalarida 2011 yilning birinchi yarmida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi taqqoslama narxlarda o’tgan yilning shu davriga nisbatan 140,6 foizni, xalq iste’mol mollari ishlab chiqarishning o’sish sur’ati 142,3 foizni tashkil etdi.

Mahsulot ishlab chiqarish: Un ishlab chiqarish o’tgan yilning shu davriga nisbatan o’sish sur’ati 143,0 foizni, omuxta yem ishlab chiqarish 112,9 foizni, non mahsulotlari ishlab chiqarish 254,3 foizni, makaron mahsulotlari ishlab chiqarish 109,3 foizni tashkil etdi.

II. Ishlab chiqarishni modernizasiyalash va texnik yangilash:

Modernizasiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash Dasturiga asosan 2011 yilning birinchi yarmida Germaniyaning “Petkus” kompaniyasining yangi texnologiyalari asosida 16 ta urug’ saralash sexlari modernizasiya qilindi hamda 3ta urug’ saralash sexlari yangidan qurilib ishga tushirildi. Namangan va Sirdaryo viloyatlarida zamonaviy texnologiyalarga asoslangan 1tadan yangi non sexlari ishga tushirildi. 2011yilda 98 ming tonna g’allaga mo’ljallangan yopiq sig’imlar qurilib ishga tushirildi. Shundan 30 ming tonnaligi zamonaviy angar tipidagi yopiq sig’im hisoblanadi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 15 dekabrda PQ-1442-sonli hamda 2010 yil 29 dekabrda PQ-1455-sonli qarorlariga asosan tarmoq bo’yicha 44ta, shu jumladan 20 ta investisiya loyihalari 2011 yilda amalga oshirilishi belgilangan. Hozirgi kunda “Qo’qon don mahsulotlari” aksiyadorlik jamiyatida quvvati sutkasiga 500 tonnalik tegirmon va quvvati sutkasiga 120 tonnalik omixta yem, “Ohangaron don” aksiyadorlik jamiyatida quvvati sutkasiga 90 tonnalik omixta yem ishlab chiqarish sexlarini modernizasiya qilish, “Juma elevatori” aksiyadorlik jamiyatida quvvati sutkasiga 25 tonnalik, “Surxondaryodonmahsulotlari”da quvvati sutkasiga 15 tonnalik va “Sariosiyo don”da quvvati sutkasiga 10 tonnalik yangi omixta yem ishlab chiqarish sexlarini yangi zamonaviy ilg’or texnologiyalar asosida qurib ishga tushirish bo’yicha ishlar olib borilmoqda. Shuningdek tizim korxonalarida yopiq sig’im qurilishi davom ettirilmoqda.

III. Kompaniya tizimida ishchi-xizmatchilarni ijtimoiy himoyalashni yaxshilash hamda oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash bo'yicha 2011 yilga mo'ljallangan Dasturning ijrosi:

Tarmoq korxonalarining ishchi va xizmatchilarini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash maqsadida parrandachilik, qoramolchilik va yangi bog'lar tashkil etish ishlariga alohida e'tibor berilmoqda. 2011 yil 1 iyul holatiga 3109 boshga bajarildi, shundan sigirlar soni 943 boshni tashkil qiladi. Don korxonalarining yordamchi xo'jaliklarida joriy yilning o'tgan oylarida 27,4 tonna go'sht, 544,5 tonna sut ishlab chiqarildi. Vazirlar Mahkamasining topshirig'iga asosan 2011 yil davomida kompaniya tizimidagi 37 ta korxonada 200 ming bosh, shundan aprel oyida 19 ta korxonaga 108 ming bosh, avgust oyida 92 ming bosh parranda boqish topshirig'i berilgan bo'lib, hozirgi kunda 32ta korxonada 124,3 ming bosh parranda sotib olingan va boqishga kirishilgan. Umumiy hisobda parranda boqish bo'yicha 1-yarimyllik topshirig'i kompaniya bo'yicha bajarilgan. Parrandalarning asosiy qismini tovuqlar tashkil qilib, hozirgacha 762,7 ming dona tuxum ishlab chiqarildi. Parrandachilikni tashkil qilish uchun yana 2 ta korxonada binolarni ta'mirlash va parranda boqish uchun moslashtirish ishlari olib borilayapti, 3 ta korxonada yangi parrandaxonalar qurilayapti. Barcha korxonalar tomonidan parrandachilikka ixtisoslashgan korxonalar va fermer xo'jaliklari bilan parranda va qafaslar sotib olish bo'yicha shartnomalar tuzilgan.

Hisobot davrida 528 ta kasanachilik (reja 272ta) ish o'rinlari yaratildi va reja 194,1 foizga bajarildi. Joriy yilning yani 2011 yilning 1 iyuliga qadar don korxonalari hududidagi yerlarga va atrofdagi yo'l chetlariga 31,2 mingta mevali va 70,9 mingta manzarali daraxt ko'chatlari, mavjud yerlar hamda bog' va tokzorlar oralarining 83 gektariga sabzavot, 19 gektariga kartoshka, 17 gektariga poliz ekinlari, 11 gektariga beda, 7 gektariga boshhoqli don ekinlari ekilgan. Yerlardan unumli foydalanish maqsadida imkoniyat bor joylarda takroriy ekinlar ham ekilmoqda.

Namangan viloyati don mahsulotlari korxonalari tomonidan Namangan shahridagi Mashrab bog'i o'rnida 40 gektarlik, Chortoq tumanida 4 gektarlik yangi

zamonaviy bog' yaratildi. Serbiya davlatidan keltirilgan mevali daraxt ko'chatlarini sotib olish uchun «O'zinterimpeks» va «O'zmarkazimpeks» davlat tashqi savdo kompaniyalaridan 25600 dona, mahalliy bog'dorchilik korxonalaridan 4800 dona ko'chat sotib olingan. Bugungi kungacha mevali daraxtlar (olma, olxo'ri, gilos) ko'chatlari ekish ishlari to'liq yakunlangan. Chortoq tumanidagi yangi zamonaviy bog'da ekish ishlari yakunlangan. Bog'larni tomchilatib sug'orish bo'yicha "Sani plast" qo'shma korxonasi bilan 187 mln.so'mga shartnoma tuzilib, xozirgi kungacha 22 gektar maydonda tomchilatib sug'orish texnologiyasi o'rnatilgan.

IV. Kadrlarga oid o'zgarishlar, qabul qilingan Qarorlar to'g'risida.

Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturining bajarilishi bo'yicha 2011 yilning birinchi yarim yilligi davomida tizim korxonalarining 720 nafar rahbar xodimlar va mutaxassislari "Soha malaka oshirish kursida", 11 nafar rahbar va mutaxassisilari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi Akademiyasi qoshidagi Oliy Biznes maktabining Korporativ boshqaruv markazida o'qitilib yangi texnika, texnologiya, buxgalteriya hisobi buyicha yangi standartlar, soliq tizimidagi yangi Qonunlar, yo'riqnomalar bilan tanishib o'z malakalarini oshirdilar. 2011 yil "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" deb e'lon qilinishi munosabati bilan Kompaniyada, tizimdagi korxonalarda Dasturlar ishlab chiqilib, sohada mehnat qilayotgan ishchi va xizmatchilarga tegishli moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatildi. Yosh kadrlarni tayyorlash, ularni malakasini oshirish maqsadida M.Ulugbek nomli texnologiya kasb-hunar kolleji, Toshkent kimyo-texnologiya instituti, Buxoro oziq-ovqat va yengil sanoat texnologiyasi instituti, Toshkent moliya instituti, Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti bilan o'zaro aloqalar yo'lga qo'yilgan, tajriba orttirish ishlari zamonaviy ilg'or texnika va texnologiyalar bilan jihozlangan korxonalarda o'tkazilmoqda. Shuningdek, yosh kadrlarni kompaniya markaziy apparatida stajirovkadan o'tkazish, ularni rahbarlik lavozimlarga zaxiraga qo'yish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar Dasturi ishlab chiqilib, kadrlarni tayyorlash ushbu Dastur asosida amalga oshirilmoqda.

2013 yil 24 aprelda “O’zdonmahsulot” AKda o’tkazilgan kengaytirilgan yig’ilishda kompaniya tarkibidagi korxonalarda 2013 yilning birinchi choragi yakunlari hamda birinchi yarim yillikda amalga oshiriladigan ustivor vazifalar tahlili.

Hisobot davrida tizim korxonalari tomonidan tarmoq oldiga qo’yilgan vazifalarni bajarishda qator ijobiy ishlar amalga oshirilganligi, jumladan, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi taqqoslama narxlarda o’sish sur’ati 2012 yil shu davriga nisbatan 106,9 foizni tashkil etgan.

Hisobot davrida tarmoq korxonalarini modernizatsiyalash va texnik qayta jihozlash Dasturi asosida 4ta yangi non sexlari qurib, ishga tushirildi. Jizzax viloyatining Arnasoy tumanida 1ta yangi Mashina traktor parki qurib, ishga tushirildi.

1ta tegirmon va 3 ta omuxta yem sexlarini modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlash hamda 1ta yangi tegirmon qurish uchun Ukraina davlatining mashinasozlik korxonalari bilan shartnomalar tuzildi. Loyihalarni moliyalashtirish uchun OAT “Agrobank”ga murojat qilingan.

Vazirlar Mahkamasining “Sanoatda ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish va mahsulot tannarxini pasaytirish borasidagi qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida” 2012 yil 28 noyabrdagi qarori asosida tarmoqda ishlab chiqariladigan mahsulotlarning tannarxini kamaytirish bo’yicha ishlab chiqilgan kompleks chora-tadbirlarga asosan 2013 yilning birinchi choragida ishlab chiqarilgan mahsulotlar tannarxi 11,3 foizga qisqartirildi.

Joriy yilning yanvar-mart oylarida jami 295ta ish o’rinlari yaratildi, jumladan 105ta tarmoqni rivojlantirish va investitsiya dasturi asosida hamda 190ta kasanachilik dasturi asosida ish o’rinlari tashkil etilgan.

Joylardagi Bandlikka ko’maklashish markazlari bilan birgalikda tasdiqlangan jadvallar asosida hisobot davrida korxonalar tomonidan 6 marotaba bo’sh ish o’rinlari yarmarkalari o’tkazilgan.

Mamlakatimizda iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo’llab quvvatlash maqsadida, eng avvalo, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishga alohida e’tibor

qaratilmoqda. Natijada har yili import o'rnini bosuvchi ko'plab turdagi mahsulotlar tayyorash o'zlashtirilyapti. Eng muximi, zamonaviy texnologiyalar sharofati bois elektr energiyasi, tabiiy gaz kabi moddiy resurslar tejalib, ishlab chiqarish sur'ati tobora ortib borayotir. Bu jarayonda Prezidentimizning 2009 yil 12 martdagi "2009-2014 yillarda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnikaviy va texnologik qayta jihozlash bo'yicha eng muhim loyihalarni amalga oshirish chora-tadbirlari Dasturi tug'risida"gi qarori dasturilamal bo'lmoqda, albatta. Mazkur xujjat ijrosi buyicha "Uzdonmaxsulot" aksiyadorlik kompaniyasida izchil tadbirlar amalga oshirilyapti. Buni yurtimiz aholisini sifatli non va non mahsulotlari bilan ta'minlashni yanada yaxshilash yuzasidan olib borilayotgan ishlar misolida ham yaqqol ko'rish mumkin.

Gap shundaki kompaniyada yangi novvoyxonalar qurish, mavjudlarini zamonaviy uskunalar bilan qayta jihozlash bo'yicha 35 ta loyiha ro'yobga chiqarilmoqda. Bugunga qadar ularning 25 tasi muvaffaqiyatli yakunlanib, mahsulot tayyorlash boshlangani, ayniqsa, diqqatga sazovordir. Soha mutaxassislarining aytishicha, novvoyxonalarni zarur texnologik jamlanmalar bilan ta'minlashda uskunalarining tejamkorligi va zamonaviyligiga aloxida e'tibor qaratildi. Shu maqsadda xorij kompaniyalari mahsulotlari atroflicha o'rganildi. Qator loyihalar orasidan Germaniyaning «Wachtel» firmasida ishlab chiqarilgan uskuna va dastgohlar quyilgan talablarga mos kelgach, ularning xaridi bo'yicha shartnomalar tuzilgan. E'tiborlisi, texnologik liniyalar imtiyozli kredit evaziga qisqa muddatlarda olib kelib o'rnatildi. Bugungi kunda Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda 25 ta zamonaviy kichik non sexi samarali faoliyat ko'rsatmoqda. Bu yerda «Wachtel» uskunolari yordamida an'anaviy mahsulotlardan tashqari, yana 20 dan ortiq turdagi non va non mahsulotlari tayyorlash o'zlashtirildi. "Shodlik", "Egizak", "Paxtaoy" singari bulochkalar, "Romashka non", "Lochira", "Turkman churagi", "Kepakli non", "Salomat non", "Toshkent patiri" shular jumlasidan. Yana bir ahamiyatli jixati, novvoyxonalar foydalanishga topshirilishi bilan qariyb 300 ta yangi ish o'rinlari yaratildi. Germaniyadan keltirilgan dastgohlar bir qator afzalliklari bilan mutaxassislarga

yanada manzur bo'lmoqda. Nega deganda, pechlar turdoshlariga nisbatan past bosimli gazda ham ko'ngildagidek ishlaydi. Shu bilan birga elektr energiyasi sarfini 15-20 foizga tejaydi. Ish jarayoninig kompyuter yordamida boshqarilishi esa mahsulotlarining sifatligini ta'minlaydi, eng asosiysi, bir paytda turli xildagi non mahsulotlari tayyorlash imkonini beradi.

“Toshkentdonmahsulotlari” ochiq akqiyadorlik jamiyati yaqinda ishga tushirgan “Oqqo'rg'on non” ishlab chiqarish sexi – zamonaviy novvoyxonalardan biri. Bu yerda kuniga 3 tonna un qayta ishlanadi. Tayyorlanayotgan mazali non, bulochka va batonlarga talab tobora ortib borayotir. Ularni iste'molchilarga issiq holda yetkazib berilayotgani ko'pchilikni mamnun etmoqda. Qolgan 10 ta loyiha bo'yicha ham ishlar jadal olib borilyapti. Bugunga qadar yangi korxonalar uchun «Wachtel» firmasining texnologik liniyalari olib kelindi. Kompaniya tomonidan non sexlari uchun binolar qurish, pardozlash va ularni jihozlashga jiddiy e'tibor qaratilyapti. Bu novvoyxonalarni belgilangan muddatlarda foydalanishga topshirish imkonini yaratishi, shubhasiz. Demak, non va non mahsulotlari tayyorlash xajmi ortib, aholining ushbu laziz ne'mat bo'lgan ehtiyojini ta'minlash yanada yaxshilanadi. Tizimdagi bunday keng qamrovli ishlar, iqtisodiyotimizning tobora yuksalayotgani, xalqimiz turmushi ma'murligining yorqin ifodasidir.

3. “JOMBOYDONMAHSULOTLARI” OAJGA QISQACHA TAVSIFI VA G’ALLA QAYTA ISHLASH SAMARADORLIGINING HOZIRGI HOLATI, DINAMIKASI

3.1. “Jomboydonmahsulotlari” OAJ to`g`risida qisqacha ma`lumot va iqtisodiy imkoniyatlari

«Jomboydonmahsulotlari» ochiq aksionerlik jamiyati 1968 yil O`rta Osiyo Davlat territorial projekt va ilmiy tekshirish instituti «Gosniisredazpromzernoprojekt» loyixasi asosida qurilgan.

1974 yildan Korxona Tegirmon sexining A seksiyasi ishga tushirilib, un mahsuloti ishlab chiqara boshladi. 1976 yildan boshlab B seksiyasi xam ishga tushirilgandan keyin, donni qayta ishlash loyixa quvvati sutkasiga 600 tonna donga yetkazildi.

Loyiha quvvati sutkasiga 315 tonna omixta yem ishlab chiqarishga mo`ljallangan omixta yem sexining qurilishi 1968 yilda boshlanib, 1977 yilda foydalanishga topshirildi.

1993 yildan boshlab, Korxona qoshida qurilgan kichik «Issiq non» sexi mahsulot ishlab chiqara boshlagan. Bu sexning non ishlab chiqarish loyixa quvvati sutkasiga ikki tonnani, makaron ishlab chiqaradigan ikkita liniyaning loyixa quvvati sutkasiga 0,52 tonnani tashkil qilgan.

1992 yilda korxonaning tegirmon kompleksi qayta jixozlandi va 1993 yilning mart oyidan boshlab uzining raqobatbardosh sifatli un mahsulotlarini ishlab chiqara boshlagan.

«Jomboydonmahsulotlari» ochiq aksionerlik jamiyati O`zbekiston Respublikasi Davlat Mulk qo`mitasining 1996 yil 16 martdagi 74-son raqamli buyrug`iga asosan «Jomboydonmahsulotlari» bazasida tashkil topdi.

O`zbekiston Vazirlar Maxkamasining 2004 yil 6 avgust №376 – P qaroriga asosan jamiyatining Nizom jamgarmasi 239 mln. 810 ming so`m qilib belgilangan. 2005 yil 29 iyun kuni aksiyadorlarning Umumiy yig`ilishida Davlat ulushining 51 foizga oshirilgani tasdiqlanib jami Nizom jamgarmasi 579 mln. 458 ming so`mga yetkazildi. Xar bir aksiyaning nominal qiymati chiqarilgan kunidan

boshlab 1600 so`m qilib belgilangan. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 18 noyabrdagi PF-4053-sonli «Iqtisodiyot real sektori korxonalarning moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari tug`risida»gi farmoni, asosan «Jomboydonmahsulotlari» aksiyadorlik jamiyatining aksiyadorlarning 2009 yil 23 martdagi navbatdagi umumiy yig`ilishi qaroriga asosan jamiyatning Nizom jamgarmasi 579 mln. 457 ming 600 so`mga yetkazildi. Xar bir aksiyaning nominal qiymati chiqarilgan qunidan boshlab 1600 so`m qilib belgilangan.

«Jomboydonmahsulotlari» aksiyadorlik jamiyati aksiyalarining taqsimoti, xozirda quyidagi ko`rinishga ega:

- Davlat ulushi 51 foiz, 295 mln. 523 ming 200 so`m, 184702 dona aksiya.
- Mexnat jamoasi ulushi 6,38 foiz 36 mln. 952 ming so`m, 23095 dona aksiya.
- Chet el investorlari ulushi 12,19 foiz 70 mln. 644 ming 800 so`m, 44153 dona aksiya, (Aksiyalar chet el investrlari tomonidan sotib olinmaganligi sababli, davlat tomonidan jismoniy shaxslarga birja orkali sotilgan).
- Erkin sotuvdagi ulushi 30,43 foiz 176 mln. 337 ming 600 so`m, 110211 dona aksiya.

Jamiyatning xududiy joylashuvi va bank rekvizitlari:

O`zbekiston Respublikasi
Samarqand viloyati
Jomboy shaxri
Buyuk Ipak Yuli ko`chasi 1 uy
Aloqa bo`limi indeksi 704506
x/r 20208000500193759001
MFO 00270 INN 200736447
Jomboy tuman OATB «Agrobank» bo`limi

Jamiyatning asosiy ishlab chiqarish sexlari:

Tegirmon sexi.

Bu sexning qurilishi 1968 yilda boshlanib, 1974 yilda A seksiyasi, 1976 yildan boshlab B seksiyasi to`lik foydalanishga topshirildi. 1976 yilda

Tegirmonning ikki seksiyasi ish boshlagandan keyin, bu sexda to`rt xil navli un mahsulotlari ishlab chiqarish yo`lga quyilgan. Bug`doydan un chikishi 78% foiz qilib belgilab berildi. Tegirmon qurilishi bilan shu sex qoshida 2500 tonna unga mo`ljallangan tayyor un mahsuloti ombori xam foydalanishga topshirilgan.

1993-1994 yillarda Tegirmonda ma`naviy va jismoniy jixatdan eskirgan uskuna va jixozlar «Byuller» firmasining lisenziyasi asosida Ukraina respublikasida ishlab chiqarilgan texnik jixozlar urnatilgan. 1994 yil mart oyidan boshlab, sutkasiga 500 tonna donni qayta ishlaydigan tegirmon sexi qayta jixozlanib barpo qilingan.

Yillik urtacha ishlab chiqarish quvvati esa 114500 tonna un mahsulotini tashkil qildi. Qayta ta`mirlashdan keyin Tegirmon sexida turt xil navli un mahsulotlari ishlab chiqarish yo`lga qo`yildi.

Qayta jixozlashdan so`ng, qopsiz un tashish uchun sig`imi 140 tonna bo`lgan to`rt dona bunkerlar xam foydalanishga topshirildi. 2003 yildan boshlab, jamiyatda bozor iqtisodtyoti talablariga mos ravishda, Tegirmon sexi oliy va birinchi navli un mahsulotlari ishlab chiqarilishi yo`lga quyilgan. Bug`doydan un chiqishi 75% foiz qilib belgilandi.

2007 yilning aprel oyidan boshlab, un mahsulotini temir moddasi bilan boyitish liniyasi ishga tushirilib, temir moddasiga boyitilgan birinchi nav un ishlab chiqarish yo`lga quyilgan.

Omixta yem sexi.

Loyixa quvvati bir kunda 315 tonna omixta yem ishlab chiqarishga mo`ljallangan, omixta yem sexi qurilishi 1968 yilda boshlanib, 1977 yilda foydalanishga topshirilgan. Shu vaqt ichida bu sex qoshida 7200 tonnaga mo`ljallangan xom-ashyo ombori va 3600 tonnaga mo`ljallangan tayyor mahsulotlar ombori xam qurilib foydalanishga topshirilgan.

1980 yilda 12 x 60 metr o`lchamdagi ayvon qurilib, foydalanishga topshirilgan. 1993 yilda omixta yem sexi qoshida xom ashyo saqlanadigan ayvon (modul) qurilgan. 2007 yildan boshlab, omixta yem sexining jismoniy jixatdan eskirganligini inobatga olinib, sexning sutkalik ishlab chiqarish quvvati 123 tonna

qilib belgilab berilgan. Bu sexda sutkasiga 5 tonna va 10 tonna donador yem ishlab chiqaradigan ikki dona press apparati ishlab turibdi.

Elevator sexi.

Sigimi 103000 tonna g`alla qabul qilish imkoniyatiga ega bo`lgan Elevator sexi qurilishi 1968 yilda boshlanib, 1973 yilda foydalanishga topshirildi. 1993 yilda eskirgan uskuna va jixozlar, yangi uskuna va jixozlarga almashtirilib, g`alla qisqa yo`l orqali tegirmon sexiga uzatiladigan bo`ldi. Elevatorning foydalanilmay kelayotgan ishchi minorasi tuliq ta`mirlanib, foydalanishga topshirildi. Ikki dona A1-BIS-100 rusumli separator o`rnatildi. 2007 yilning oxiridan aspirasiya tizimlari to`liq ta`mirdan chiqarilgan va me`yorida ishlamoqda. Elevatorda mavsum davrida tayyorlangan g`allani qabul qilish, tozalash, saqlash, tegirmonga uzatish, temir yo`l orqali vagonlarga yuklash va vagonlardan qabul qilish moslamalari mavjud bo`lib, barcha turdagi ishlarni amalga oshiradi. Bu sexda ikki dona 15 tonnalik va bir dona 30 tonnalik guarlar mavjud. 2007-2008 yillarda Elevator sexida saklanayotgan g`allani xaroratini va sifatini nazorat qilib turish uchun xar bir siloslarga termopodviskalar to`liq o`rnatildi.

Kichik «Issiq non» sexi.

Jamiyat qoshida Tuman axolisining non va bulka mahsulotlariga bo`lgan talabini qondirish uchun 1993 yilda kichik «Issiq non» sexi qurib, foydalanishga topshirilgan. Bu sexda loyixa quvvati 2 tonna non va bulochka mahsulotlari ishlab chiqaradigan «Rus» pechi urnatilgan, yana bu sexda sutkasiga 0,52 tonna oliy va 1-chi navli rojki va vermishel makaron mahsulotlarini ishlab chiqaradigan 2 dona makaron liniyasi xam faoliyat ko`rsatmokda. Bundan tashqari bu sex qoshida firma do`koni qurilib foydalanishga topshirilgan.

Don qabul qilish manzilgoxlari va uruglik g`alla ishlab chiqarish sexlari.

«Urgut» g`alla qabul qilish manzilgoxi.

Don qabul qilish manzilgoxi Urgut tumanida 1994 yilda tashkil kilingan. Bu GQQMning umumiy maydoni 2,05 ga. Bu yerda 2000 tonna donni saqlashga mo`ljallangan yopiq sig`im bor. 12 ming tonna g`allaga mo`ljallangan asfalt

maydoniga ega. Ikki dona KShP don uzatish anjomlari mavjud. Bu GQQM Urgut tuman xo`jaliklaridan 15000 tonna g`alla qabul qilish imkoniyatiga ega.

«Bulung`ur» g`alla qabul qilish manzilgoxi.

«Bulung`ur» g`alla qabul qilish manzilgoxi 2004 yilda Jamiyat tasarrufiga o`tkazilgan. Bu manzilgoxning umumiy maydoni 3,19 gadan iborat. Manzilgoxda 11 ming tonna don qabul qila oladigan yopiq sig`imlar bor. 20 ming tonna don qabul qiladigan asfalt maydonlariga xam ega. Bu manzilgoxda 10 dona xar xil don uzatish uskunalari mavjud. Manzilgox Bulungur tuman xo`jaliklaridan o`rtacha 22 ming tonna g`alla qabul qilish quvvatiga ega.

«Tayloq» g`alla qabul qilish manzilgoxi.

Bu manzilgox 1996 yildan Jamiyat balansiga o`tkazilgan. Toyloq g`alla qabul qilish manzilgoxi negizida sutkasiga o`rtacha 110-120 tonna sara urug`lik ishlab chiqaradigan sex qurilgan. Bu manzilgoxning umumiy maydoni 4,93ga. Manzilgox tuman xujaliklaridan 2,5 ming tonna uruglik g`allani yopiq maydonlarga qabul qilish imkoniyatiga ega. 12 ming tonna g`alla qabul qiladigan asfalt maydoni mavjud. 3 dona KShP don uzatish uskunalari bor. Bu manzilgox Toyloq tuman xo`jaliklaridan o`rtacha 15 ming tonna donni qabul qilish imkoniyatiga ega.

«Real baza» urug` sexi.

1995 yilda Jomboy tumani markazi sanoat rayonida joylashgan 3,31 gektarli «Real baza» Aksiyadorlik jamiyat tomonidan sotib olindi. Bu sex qoshida 1999 yilda urug`chilik sexi qurilib, foydalanishga topshirildi. Bu sexning loyixa quvvati sutkasiga 120-130 tonna sara urug` ishlab chiqarish imkoniyatiga ega. Bu sex 10 ming tonna g`allani joylashtira oladigan yopiq sig`imga va 13 ming tonna g`alla qabul qila oladigan asfalt maydoniga ega.

Maxsulot ishlab chiqarish bosqichlari va ishlab chiqarishni amalga oshirish mexanizmiga qisqacha ta`rif.

Un ishlab chiqarish jarayoni.

«Jomboydonmahsulotlari» Aksiyadorlik jamiyati va Viloyat tuman xo`jaliklari bilan tuzilgan shartnomalarga asosan g`alla qabul qilish

manzilgoxlarida g`alla xom ashyosi yig`iladi. Yigilgan g`alla xom ashyosi Karxonaning Elevator bo`limiga topshiriladi. Elevator sexida yig`ilgan g`alla davlat standartlariga mos xolda saqlanib, Tegirmon sexiga berilishdan oldin, Elevator sexining 4-chi qavatida joylashgan bosh tozalagich separator uskunasi un mahsulotining sifatini buzadigan begona o`t urug`lari, mayda siniq bug`doylardan tozalangan xolda tegirmon sexiga uzatiladi. Tegirmon sexiga olingan bug`doy xom ashyosi birinchi navbatda tosh tozalagichdan (kamneotbornik) o`tkaziladi. Tosh va mayda begona qattiq jismlardan tozalangan bug`doy xom ashyosi xavo yordamida ishlaydigan Duaspirator yordamida don tarkibidagi chang, mayda don siniklaridan tozalanadi. Begona jismlardan tozalangan bug`doy xom ashyosi bug`doyni yuvish (moyka) bo`limiga beriladi. Bu yerda ikki bosqichdan o`tkazilib namlanib, kondisiya xoliga keltirilgan bug`doy xom ashyosi Tegirmon sexining yanchish bo`limiga beriladi. Yanchish bo`limidan o`tgan bug`doy elaklarga uzatilib u yerda fraksiyalarga ajratiladi. Fraksiyalarga ajratilgan bug`doy yana maydalash uchun yanchish bo`limiga yuboriladi, bu bosqichdan bir necha bor o`tgangandan keyin, elaklash bo`limida o`rnatilgan sitoveykalar orqali un navlarga ajratiladi. Un mahsuloti navlariga qarab siloslarga joylanadi. Tegirmon sexida sig`imi 40 tonnalik bo`lgan, 12 ta tayyor un mahsuloti siloslari qurilgan. Shundan 8 tasi 1 chi nav un uchun 4 tasi oliy nav un uchun 1 tasi makaron uni uchun 1 tasi un yormasi uchun ajratilagan. Bu siloslardan un qoplash bo`limiga yuboriladi. Qoplangan un mahsulotlari avtomat tarozilardan o`tib, lentalar orqali tayyor un omboriga uzatiladi.

Omixta yem ishlab chiqarish jarayoni.

Tegirmondan chiqqan kepak mahsuloti vagonlar orqali Omixta yem sexiga tarozidan o`tkazilib yuboriladi. Omixta yem sexida don xom ashyo liniyasi, kepak liniyasi, kunjara liniyasi mavjud.

Donli liniyadagi xom ashyo birinchi galda maydalash (drobilka) bo`limiga yuboriladi. Maydalangan don xom ashyosi kepak liniyasidagi, kunjara liniyasidagi xom ashyolar bilan parallel ravishda ko`p kamponentli taroziga jo`natiladi. Bu tarozi ishlab chiqarilayotgan yem reseptiga mos ravishda xom ashyolarning

ulushini nazorat qilib yem aralashtirgichga (smesitel) uzatadi. Bu yerda yem xoliga keltirilgan massa noriya orqali tayyor mahsulot omboriga jo`natiladi. Sochma yem talabga qarab yem presslash bo`limida donador yem xoliga keltirilib iste'molchilarga beriladi.

Non, bulka va makaron mahsulotlari ishlab chiqarish.

Jamiyat qoshidagi kichik «Issiq non» sexi Jamiyatning Tegirmon sexida ishlab chiqarilgan oliy va birinchi navli un mahsulotlaridan Davlat standartining 27842-88 GOSTiga muvofiq birinchi navli non, bulka, oliy navli va birinchi navli makaron mahsulotlarini talabga qarab ishlab chiqaradi. Kichik «Issiq non» sexi tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar Savdo bo`limi firma do`konlari orqali sotiladi, xamda shartnomaga asosan tashkilotlarga yetkazib beriladi.

Urug`lik g`alla ishlab chiqarish.

Urug`lik g`alla yetishtiruvchi fermer xo`jaliklarning Taxlilxona xodimlari ishtirokida qabul qilinadi. Qabul qilingan urug`lik material birinchi navbatda triyerlar yordamida yot jismlardan tozalanadi. Sung separator yordamida begona o`t urug`laridan tozalanadi. To`liq tozalangan urug`lik material dorilash bo`limida turli o`simlik kasalliklariga qarshi ximiyaviy preparatlar bilan ishlov beriladi. Ximiyaviy ishlov berilgan uruglik g`alla qoplash bo`limida tarozidan o`tkazilib qoplanadi. Qoplangan urug`lik g`alla fermer xo`jaliklarga tarqatish uchun sex qoshidagi omborga saqlash uchun jo`natiladi.

Ishlab chiqarishni kengaytirish yangi uskunalar sotib olish, ularga ketgan xarajatlarning qoplanishi manbalari va muddatlari, yangi texnologiya samarasi.

«Jomboydonmahsulotlari» Aksiyadorlik jamiyatining omixta yem sexi 1977 yilda qurilib foydalanishga topshirilgan. Shu o`tgan yillar mobaynida bu sexda joriy (kapital) remontlar o`tkazilib kelingan. Lekin texnik Modernizasiya qilinmagan. Shuning oqibati ularoq bu uskunalar ko`proq ishchi kuchi, elektr energiyasi, suv va boshqa resurslarning tejamsiz ishlatilishiga olib kelmoqda. Shunga e`tibor qaratgan «Jomboydonmahsulotlari» OAJ ma'muriyati zamon talabiga javob bera oladigan sifatli omixta yem ishlab chiqaradigan uskunalarni

omixta yem sexiga o`rnatishni o`z oldilariga maqsad qilib ko`ydilar. Buning uchun jamiyatimiz bilan Ukraina respublikasining «OO SP Grantex» xamda OAO «Xarol mexanik zavodlari o`rtasida yangi texnik uskunalarni sotib olish uchun jami bo`lib 324 ming AKSh dollari miqdorida shartnoma tuzildi. Ushbu shartnoma asosida sotib olinayotgan texnik jixoz va asbob-uskunalar zamonaviy bo`lib, sifatli va arzon omixta yem mahsuloti ishlab chiqarishga imkon beradi. Viloyat ichki bozorini maxalliy xom-ashyo bazasida ishlab chiqarilgan va import mahsulot o`mini bosuvchi mahsulot bilan boyitishiga imkoniyat yaratadi. Shu bilan birga korxonaning iqtisodiy samaradorligini oshishiga olib keladi. Bu yangi Texnologiyani o`rnatish ishlari 2009 yilning I-choragida boshlanib, 2009 yilning II-choragida tugallangan. Mazkur Loyixa qiymati 1 mlrd. 73 mln 800 ming so`m. Shundan 1 mlrd 605 mln so`mi (65,2% foizi) kredit mablag`lari xisobidan, 373 mln 800 ming so`mi (34,8% foizi) jamiyatning o`z mablag`lari xisobidan amalga oshirilgan. Olinadigan 662 mln so`m kredit mablag`idan 300 mln so`mi Omixta yem sexining elektrotexnik, asperasiya jixozlariga, bo`yoqlash va elektroenergiya tarmoqlariga yo`naltirilgan. Shundan elektr jixozlariga 141 mln. so`m, elektr tarmoqlariga 50 mln. so`m, asperasiya jixozlariga 50 mln. so`m xamda omixta yem sexining tashqi ko`rinishini bo`yash va fasad ishlari uchun 59 mln. so`m sarflangan. Qayta jixozlash ishlari to`liq amalga oshirilgandan keyin omixta yem sexi sutkasiga 228 tonna sifatli omixta yem ishlab chiqarish quvvatiga ega bo`ldi va yana shuncha omixta yem mahsulotini iste`molchilarning talabiga qarab donador yemga aylantirish quvvatiga xam ega bo`ldi. Omixta yem sexi qayta ta`mirlashdan so`ng bir yilda o`rta xisobda 70000 ming tonna omixta yem ishlab chiqarish imkoniyatiga ega. Bu yangi texnologiya loyixasi uzini 3 yilda qoplanishi xisob-kitob qilingan. Korxonaning moliyaviy xolati bu yangi loyixani amalga oshirishga to`lik imkon beradi. Yangi texnologiyaning ishlab chiqarish quvvatining uzlashtirilishi 1 yilda 50% foizi, 2 yilda 80% foizi, 3 yilda 85% foizga yetkazilishi erishilgan.

Maxsulot ishlab chiqarish uchun zarur bo`ladigan xom-ashyo ta'minoti va xarid qilish manbalari.

«Jomboydonmahsulotlari» Aksionerlik jamiyati tomonidan g`alla o`rim yig`im davrida g`alla qabul qilish uchun beshta manzilgoxlar tashkil qilingan.

1.Bulung`ur tumani markazidagi Bulung`ur g`alla qabul qilish manzilgoxi.

2.Urgut tumanidagi Urgut g`alla qabul qilish manzilgoxi.

3.Tayloq tumanidagi Tayloq g`alla qabul qilish manzilgoxi.

4.Jomboy tumani sanoat rayonidagi «Rayel baza» urug`lik sexi.

5.Ijaradagi «Oq oltin» g`alla qabul qilish manzilgoxlari shular jumlasidandir.

Bundan tashqari g`alla mavsumi davrida to`g`ridan to`g`ri g`alla jamiyatning Elevator sexiga qabul qilinadi. Jamiyatning asosiy xom ashyosi xisoblangan bug`doy, arpa g`alla manzilgoxlarida yig`ilib, keyinchalik korxonaning elevator sexiga saqlash va tegirmon sexiga qayta ishlash uchun beriladi.

Dexqon fermer xo`jaliklaridan qabul qilingan g`alla xar yili «O`zdonmahsulot» kompaniyasi va Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan narx asosida qabul qilinib, shu narx bo`yicha korxona va dexqon fermerlar o`rtasidagi xisob-kitob ishlari amalga oshiriladi. Yigilgan bug`doy tegirmon sexining xom ashyosi xisoblanadi, bug`doydan chiqqan kepak esa omixta yem sexining asosiy xom ashyolaridan biri xisoblanadi. Bundan tashqari ishlab chiqarilayotgan yemning ozuqabopligi va sifatini oshirish uchun kerak bo`ladigan past sinfli bug`doy va arpa, makka doni, kunjara, o`t unlari, guruch kukuni, oqsil konsentrati, vitaminli qushimchalar shartnoma asosida qabul qilinib, kelishilgan narx bo`yicha xisob-kitob qilinadi.

3.2. Samaradorlik tushunchasi, mezoni, ko'rsatkichlari va ularning "Jomboydonmahsulotlari" OAJdagi hozirgi holati

Ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi umumiy ko'rinishda ishlab chiqarishning natijasi, jonli va buyumlashgan mehnat xarajatlari o'rtasidagi nisbat bilan ifodalanadi. Ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligini oshirishning obyektiv zarurligi mamlakat iqtisodiy rivojlanishining hozirgi etapdagi bir qator xususiyatlari va doimiy harakatdagi omillarning yig'indisiga bog'liq. Bir tomonda qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish oziq-ovqat mahsulotri sifatiga bo'lgan talabning kuchayishi, ba'zi ishlab chiqarish resurslarining chegaralanganligi, ishlab chiqarish vositalari qiymatining o'zgarishi va boshqalarni ko'rsatib turadi.

Boshqa tomondan, hozirgi etapdagi jamiyatning rivojlanishi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligin oshirish imkoniyatini kengaytiradi.

Mamlakatda to'plangan iqtisodiy potensial, fan va texnikaning rivojlanishi, malakali kadrlar, ommaning aktivligi, ularning tajribasi, shuningdek yuqori pirovard natijalarga ommaning moddiy qiziqishining o'sishi o'simchilik va chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirishga sharoit yaratishi bilan birga mamlakat aholisining iste'mol uchun tayyor oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirishi, tannarxni pasaytiradi va rentabellikni oshirish imkoniyatlaridan oqilona foydalanishga imkon beradi.

Ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligi haqida masala ko'rilganda, «Samara» va «Samaradorlik» - tushunchalarining bir xil yemasligini ko'zda tutish kerak. «Samara» termini qandaydir jarayonning natijasini bildiradi. Umumiy ko'rinishda har qanday ishlab chiqarishning samarasi shaklida uning vazifasi – ishlab chiqarishning maqsadini amalga oshiruvchi pirovard mahsulot yuzaga chiqadi. Bir tomondan, u o'z tarkibiga ma'lum davrdagi harakatdagi ishlab chiqarish resurslarining moddiy natijasi yig'indisini oladi, boshqa tomondan – ishlab chiqarishning pirovard maqsadi faqat bevosita ishlab chiqarilgan moddiy boyliklarning hajmida mujassamlashgan bo'ladi.

«Samara»- mahsulot shaklida(natura va pulda) ishlab chiqarish resursi, xarajat, foyda sferasida esa iqtisodiy, shuningdek xodimlarning yashash va ishlash sharoitini ham aks ettiruvchi sosial o'sish bo'lishi mumkin.

Lekin samara qanchalik muhim bo'lsa ham, o'z-o'zidan kishining mehnat faoliyatini to'liq xarakterlamaydi, qanday resurs(xarajatlar)lar evaziga olinganligini ko'rsatmaydi. Bir xil samara turli usul bilan, resurslardan turlicha darajada foydalanish orqali olingan bo'lishi mumkin va aksincha, bir xil resurs(xarajat)lar turli samara berishi mumkin. Shuning uchun erishilgan samarani shu samarani olishda qatnashgan resurslar(xarajatlar) bilan taqqoslash zaruriyati kelib chiqadi.

Bundan ko'rinadiki, samara(natija) deb atalgan absolyut miqdor bilan bir qatorda yana bir absolyut miqdor – qo'llanilgan yoki iste'mol qilingan resurslarni(joriy ishlab chiqarish xarajatlari) hajmini bilish zarur.

Ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi iqtisodiy samaraning (natijaning) resurslarga(xarajatlarga) nisbati yoki aksincha usul bilan aniqlanadi:

$$IS = \frac{S(n)}{R(x)} ; \quad \frac{R(x)}{S(n)}$$

Iqtisodiy samaradorlik darajasi qanday bahodagi resurslar hisobiga iqtisodiy samaraga erishilganliging bildiradi. Samara qancha katta va xarajat shuncha kichkina bo'lsa, ishlab chiqarish iqtisodiy samadorligi shuncha katta bo'ladi va aksincha. Resurslar va iqtisodiy samaradorlik o'rtasida ma'lum bir aloqa mavjud. Xarajatlar ikki xil bo'lishi mumkin: jonli va buyumlashgan. Jonli mehnat, asosiy va moddiy aylanma vositalarning absalyut miqdori resurslar (xarajatlar) sifatida, ular miqdorining kamayishi va ularni tejash – iqtisodiy samara shaklida ko'rinadi.

Ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligi mohiyati, uning kriteriyasi va ko'rsatkichlari orqali amalga oshadi.

Mezonning ilmiy tushunchasi ma'lum bir belgi, baho o'lchovini ifodalaydigan asosiy sifati uning muhim xossasidir. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi mezoni jamiyatga kerak bo'lgan yer maydoni birligidan

chiqadigan qishloq xo'jalik mahsulotining olinishi shu bilan bir qatorda ishlab chiqarishning tejamliligi va yuqori sifatini ta'minlashdir.

Ko'rsatilgan mezon qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining maqsadiga – tarmoq mahsulotiga aholining o'sib borayotgan talabini to'laroq qondirishga javob beradi va uning yutuqlari yo'lini – ishlab chiqarish resurslaridan oqilona foydalanish va intensivlashtirish asosida sistyemali ravishda ishlab chiqarishni pasaytirishni aniqlab beradi. Shu bilan birga bu mezonda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining o'ziga xos xususiyati eng avvalo yer resurslari bilan mustahkam aloqasini aks ettiradi.

Ishlab chiqarishda samara va resurslarning bosqich darajasiga qarab, ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi quyidagi turlarga bo'linadi: xalq xo'jaligi, tarmoq, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish samaradorligi, davlat, kooperativ korxonalar, ijara kollektivlari, dehqon xo'jaliklari samaradorligi, ayrim qishloq xo'jalik tarmoqlari va mahsulotlari samaradorligi, alohida ishlab chiqarish resurslari, shuningdek alohida xo'jalik tadbirlari agrotexnik, zootexnik, veterinariya, texnika, iqtisodiy tashkiliy munosabatlar va boshqalarning samaradorligi aniqlanadi.

Xalq xo'jaligi samaradorligi oziq-ovqatga bo'lgan iste'molini qondirish, sanoatning xom ashyoga bo'lgan ehtiyojini qondirish, shuningdek, tarmoqni umumdavlat, xalq xo'jalik topshiriqlari va muammolarini hal qilishda moliyaviy hissasi nuqtai nazaridan baholanadi. Tarmoq samaradorligi resurslar potensialidan foydalanishda, xalq xo'jaligining shu tarmog'ida samara (natija) va resurs (xarajat) o'rtasidagi erishilgan nisbatning natijasini aks ettiradi.

Davlat va kooperativ korxonalar, ijara jamoalari, dehqon xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligi tarmoq samaradorligi bo'lib hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi tarmoqlari va alohida mahsulot turlarini ishlab chiqarish samardorligi dehqonchilik, chorvachilik va shu tarmoqlar mahsulotlari – g'alla, paxta, kartoshka, sabzavot, go'sht, sut, tuxum va boshqalarning pirovard iqtisodiy natijalarini xarakterlaydi.

Yangi sharoitda, ishlab chiqarishni intensivlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan turli xo'jalik tadbirlarining iqtisodiy samaradorligini aniqlash ancha muhim hisoblanadi. Bunday tadbirlar jumlasiga ekin maydonlarining turli tarkibi, qishloq xo'jaligining yangi navlari, ilg'or texnologiya va alohida agrotexnik tadbirlar (tuproqni ishlash, ekish, hosilni yig'ish va boshqa usullar), hayvonlarning yangi zoti, poda strukturasi, oziqlantirish rasioni va boshqalarning samaradorligi kiradi.

Ishlab chiqarishda iqtisodiy samaradorlikni aniqlashda obe'ktiv iqtisodiy qonunlarni moddiy ishlab chiqarishning shu tarmog'ida ko'rinish shakllarini ifodalaydigan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish tavsiya etiladi. Iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlar tizimining amaliy ahamiyati, ishlab chiqarish resurslar samaradorligini umumlashgan holda aks ettirishdan, uning mezonining mutloq va nisbiy ko'rsatkichlarini hisoblash usullaridan foydalanishni taqozo etadi.

Ishlab chiqarish samaradorligini baholash uchun foydalaniladigan ko'rsatkichlar tizimiga asoslash, turli xarakterda iqtisodiy samarani o'lchash hamda turli xarakterdagi resurslar va xarajatlarni o'lchash sifatida ham zarurdir. Ular o'zining iqtisodiy tabiati bilan ham va har doim ham taqqoslab bo'lmasligi bilan ham farq qiladi. Ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichlari xususiy va umumlashtiruvchi ko'rsatkichlarga bo'linadi. Xususiy ko'rsatkichlarga, mahsulot hajmi va mahsulot sifati, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish samaradorligi, mehnat unumdorligi, material qaytimi, mahsulot tannarxi va shularga teskari ko'rsatkichlar kiradi. Bu ko'rsatkichlar natija sifatida, sanoatning xom-ashyoga, aholining oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojini ancha to'laroq qondirishga yo'naltirilgan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining maqsadini ancha to'laroq aks ettiradi. Shuni ta'kidlash lozimki, umumiy samara faqat ishlab chiqarilgan mahsulotning miqdori bilan yemas, balki qo'yilgan maqsadga bog'liq holda, boshqa hajm ko'rsatkichlarga ham ega. Masalan: yalpi mahsulot ishlab chiqarish samarasini bosh vazifa-iste'mol qiymat yaratish nuqtai nazardan; tovar mahsulot-qishloq xo'jalik mahsulotlariga ijtimoiy ehtiyojni qondirish nuqtai nazaridan; sof mahsulot(yalpi daromad) - takror ishlab chiqarishning ikki tomoni

– iste'mol va jamg'arish - birligida ishlab chiqarish samaradorligini hisoblash uchun; foyda va sof daromad - ishlab chiqarish samaradorligini ishlab chiqaruvchilarning iste'mol qiymatga bo'lgan manfaatini qondirish nuqtai nazaridan xarakterlanadi.

Shu bilan birga, kishilarning iste'molini qondirish darajasi ishlab chiqarilgan mahsulotning faqat miqdoriga yemas, balki sifatiga ham bog'liq. Mahsulot sifatini yaxshilash bir tomondan oziq-ovqat mahsulotlari miqdorining ko'payganligini bildirsa, yengil sanoat uchun qishloq xo'jalik xom-ashyosining sifatining yaxshilanishi aholining keng iste'mol buyumlariga bo'lgan talabini to'laroq qondirishga imkoniyat yaratadi.

Mehnat unumdorligi yoki mehnat qaytimi ma'lum vaqt birligi ichida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga sarflangan jami mehnat xarajatlarining samaradorligini xarakterlaydi. Fond qaytimi xalq xo'jaligi ishlab chiqarish tarmoqlariga taaluqli asosiy ishlab chiqarish vositalarida mujassamlashgan, buyumlashgan mehnat xarajatlardan qay darajada samarali foydalanayotganligini ko'rsatadi. Material qaytimi barcha turdagi moddiy resurslardan, shu jumladan buyumlashgan mehnat xarajatlaridan foydalanish samaradorligini aks ettiradi.

Alohida resurslar va xarajatlardan foydalanishni xarakterlaydigan bu ko'rsatkichlar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi absolyut samaradorligining asosiy ko'rsatkichlari. Masalan: asosiy fond qaytimida, alohida traktor, kombayn, mahsuldor hayvonlar va boshqa; aylanma fond qaytimida, yoqilg'i-moylash, ishlab chiqarish materiallaridan foydalanish bo'yicha ham o'rganiladi. Dyemak, xalq xo'jalik ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari bir tomondan ishlab chiqarish resurslari va samara(natija) o'rtasidagi nisbatni va boshqa tomondan, joriy ishlab chiqarish xarajatlari bilan samara o'rtasidagi nisbat ifodalaydi, bu ishlab chiqarish samaradorligining ikkita konsepsiyasini – resurs va xarajat - vujudga keltiradi. Resurs konsepsiyasi - takror ishlab chiqarish jarayonida qo'llanilgan ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligini, xarajatlar konsensiyasi - shu resurslarning iste'mol qilingan qismi samaradorligini

baholashga imkon beradi. Maqsadga qarab resurs yoki xarajatlar konsepsiyasi yoki ikkovidan ham bir vaqtda foydalanilinish mumkin.

Qabul qilingan samaradorlikni konsepsiyasilariga mos ravishda ko'rsatkichlari ham aniqlanadi:

1 ta xodimga, 1 kishi/soatiga, 100 so'mlik asosiy vositaga, 100 so'mlik oborot vositalariga to'g'ri kelgan samara qo'llanilgan resurslardan foydalanishni samaradorligini xarakterlaydi. 100 so'm ish haqiga, amortizasiya ajratmasiga, moddiy aylanuv vositalariga hamda mahsulot tannarxiga to'g'ri kelgan mahsulot tannarxga kiritilgan barcha bevosita va bilvosita xarajatlari samaradorligini ifodalaydi.

Keltirilgan xususiy ko'rsatkichlar, ma'lumki umumiy samara (natijani)ni alohida ishlab chiqarish resurslari xarajat turi miqdoriga nisbatini aniqlaydi. Lekin ishlab chiqarish jarayonida umumiy samara (natija)ning vujudga kelishida alohida resurs(xarajat)lar qatnashadi. Dyemak, har bir resurs (xarajat) umumiy samara (natija)ning vujudga kelishida ishtiroq etadi. Bu uslubiy jihatdan ma'lum darajada xato bo'lsa ham, umumiy samara ana shu ishlab chiqarish resurslarining birgalikdagi faoliyatining natijasidir. Shuning uchun ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligini har tomonlama va aniq baholash uchun, alohida usulda hisoblanadigan ko'rsatkichlarni, har bir ishlab chiqarish resursining umumiy samarani yaratishdagi rolini va ularning ishlab chiqarish pirovard natijasiga ta'sirini hisobga oladigan ko'rsatkichlar bilan to'ldirish lozim. Buning uchun elastiklik, determinasiya koeffitsiyetlaridan, shuningdek, iqtisodiy-matyematik modelidan foydalanish kerak bo'ladi.

Hisoblash har qancha murakkab bo'lsa ham, bitta umumlashtiruvchi shunday ko'rsatkich kerakki, u qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligini miqdoriy jihatdan to'liq baholaydigan bo'lishi kerak. Bu vazifani bajarish uchun umumlashtiruvchi ko'rsatkich ma'lum bir quyidagi talablarga javob berishi kerak:

1.U ijtimoiy rivojlanishning iqtisodiy qonunlaridan kelib chiqishi kerak;

2.U ishlab chiqarishning pirovard natijasini jami resurslar yoki jami xarajatlar bilan taqqoslashni ta'minlaydigan ko'p faktorli bo'lishi kerak;

3.Bu ko'rsatkich samaradorlikni xalq xo'jalik ishlab chiqarishning turli darajalarida, ijara kollektivlaridan boshlab bir butun qishloq xo'jaligi bo'yicha ochib berishish kerak;

4.Bu ko'rsatkich bilan hisoblash metodik nuqtai nazaridan oddiy va qulay bo'lishi kerak.

Yuqorida bayon qilingan, ishlab chiqarish samara (natija)si va ishlab chiqarish resurs (xarajat)lari to'g'risidagi asosiy metodologik sharoitlarga mos, shuningdek qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi iqtisodiy samaradorligining umumlashtiruvchi ko'rsatkichga bo'lgan talabni hisobga oladigan ko'rsatkich resurs qaytimi (resurs sig'imi) hisoblanadi. U qo'llanilgan resurslar potesialidan foydalanishning samaradorligini xarakterlaydi. Xarajatlar konsepsiyasining samaradorligining umumlashtiruvchi ko'rsatkichi–rentabellik hisoblanadi va iste'mol qilingan resurslarning qaytimini ifodalaydi.

Ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari bir tomondan ishlab chiqarish resurslari va samara(natija) o'rtasidagi nisbatni va boshqa tomondan, joriy ishlab chiqarish xarajatlari bilan natija o'rtasidagi nisbatni ifodalaydi, bu ishlab chiqarish samaradorligining ikkita konsepsiyasini – resurs va xarajat – vujudga keltiradi. Resurs konsepsiyasi – takror ishlab chiqarish jarayonida qo'llanilgan ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligini, xarajatlar konsepsiyasi – shu resurslarning iste'mol qilingan qismi samaradorligini baholashga imkon beradi. Maqsadga qarab resurs yoki xarajatlar konsepsiyasi yoki ikkalasidan ham bir vaqtda foydalanish mumkin.

Samaradorlik ko'rsatkichlarini “Jomboydonmahsulotlari” OAJ misolida tahlil qilamiz.

3.2.1-jadval

Jomboy tuman “Jomboydonmahsulotlari” OAJ moliyaviy natijalar tahlili* (ming so`m)

Ko`rsatkichlar	Yillar				2013 yil 2010 yilga nisbatan o`zgarishi	
	2010	2011	2012	2013	(+,-)	%, m
1.Mahsulot (ish xizmatlar) sotishdan tush. pul tushumi	34708200	40534266	49537140	61235670	26527470	176,4
2.Sotilgan mahsulot tann.	31190380	36650036	42252906	52248705	21058325	167,5
3.Mahsulot sotishdan olingan yalpi foyda	3517820	3884230	7284234	8986965	5469145	2,5 m
4.Davr xarajatlari, jami	2874290	3183405	5942806	7267794	4393504	2,5 m
*sotish xarajatlari	379297	409030	793548	923010	543712,8	2,4 m
*ma`muriy xarajatlar	378827	430608	793929	1061098	682270,9	2,8 m
*boshqa operasion xar.	2116166	2343767	4175329	5283686	3167520	2,5 m
5.Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari	50982	53209	44329	47839	-3143	93,8
6.Asosiy faoliyat foydasi	694512	754034	1385757	1767010	1072498	2,5 m
7.Moliyaviy faoliyatning daromadlari, jami	6783	7598	9564	11890	5107	175,3
8.Moliyaviy faoliyat buyicha xarajatlar, jami	240398	204984	264598	348919	108521	145,1
9.Umumxo`jalik faoliyatining foydasi	460897	556648	1130723	1429981	969084	3,1 m
10.Daromad solig`ini to`lagunga qadar foyda	460897	556648	1130723	1429981	969084	3,1 m
11.Daromad solig`i	19835	14537	26543	29639	9804	149,4
12.Foydadan boshqa soliqlar va yig`imlar	7364	4527	95818	10567	3203	143,5
13.Sof foyda	433698	537584	1008362	1389775	956077	3,2 m
14. Rentabellik, %	1,39	1,47	2,39	2,66	1,27 punkt oshgan	

*Manbaa: “Jomboydonmahsulot” OAJning statistik hisoboti, (2-son shakl)

Jadval ma`lumotlaridan ko`rinib turibdiku, jamiyatda mahsulot sotishdan tushgan sof pul tushumi tahlil qilinayotgan davrlarda oshib borish suratisiga erishgan. 2013 yil yalpi pul tushumi 61235670 ming so`m bo`lib, 2010 yilga nisbatan 26527470 ming so`mga yoki 76,4% ga oshgan. Sotilgan mahsulot tannarxi 2013 yil 52248705 ming so`m bo`lib 2010 yilga nisbatan 67,5 % ga yani 21058325 ming so`mga oshgan. Jamiyat mahsulot sotishdan 2013 yilda 8986965 ming so`m yalpi foyda olishga erishgan. Ushbu ko`rsatkich 2010 yilga nisbatan 5469145 ming so`mga yoki 2,5 martaga oshirilishiga erishgan.

Jamiyat 2013 yil davr xarajatlariga 7267794 ming so`m sarf qilishgan va bu xarajat turi 2010 yilga nisbatan 4393504 ming so`mga yoki 2,5 martaga oshgan. Davr xarajatlarining asosiy qismi operasion xarajatlarga sarf qilingan. Davr xarajatlarining usish surati ma`muriy xarajatlarida ko`proq kuzatilgan, 2013 yil 2010 yilga nisbatan 2,8 martaga oshgan.

Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari yillar davomida kamayib borganligini kuzatildi. 2013 yil 2010 yilga nisbatan 3143 ming so`mga yoki 6,2 % ga kamaygan.

Asosiy faoliyatning foydasi tahlil qilinayotgan yillarda o`shish suratlariga erishilgan, 2013 yil 2010 yilga nisbatan 1072498 ming so`mga yoki 2,5 martaga oshganligi kuzatilgan.

Moliyaviy faoliyatning daromadlari va xarajatlari o`rsatidagi farq natijasi bilan umumxo`jalik faoliyatining foydasi aniqlandi. Unga ko`ra 2013 yil 1429981 ming so`m bo`lib, 2010 yilga nisbatan 969084 ming so`mga yoki 3,1 martaga oshgan.

Jamiyatda tahlil qilinayotgan yillarda favqulotdagi foyda va zararlar umuman kuzatilmagan. Buning natijasida jamiyatda daromad (foyda) solig`i to`langunga qadar foyda (zarar) umumxo`jalik faoliyatining foydasi bilan bir xil bo`lishiga olib kelgan.

Jamiyat daromad solig`i hamda boshqa soliqlar va jig`imlar to`lovini amalga oshirib, sof foydaga erishishgan. Sof foyda jamiyatda 2013 yil 1389775 ming so`m bo`lib, 2010 yilga nisbatan 956077 ming so`mga yoki 3,2 martaga oshgan.

Korxonada rentabellik darajasi sof foydaga nisbatan xisoblanganda 2010 yil 1,39%, 2011 yil 1,47%, 2012 yil 2,39%, 2013 yil 2,66% bo`lib, 2013 yil 2010 yilga nisbatan 1,27 punktga oshgan.

Quyidagi 2- jadvalimizda jamiyatning iqtisodiy samaradorlik ko`rsatkichlari va unlarning dinamikasini tahlil qilamiz.

**“Jomboydonmahsulotlari” OAJning iqtisodiy samaradorlik ko`rsatkichlari tahlili
va dinamikasi***

№	Ko`rsatkichlar	Yillar				2013 yil 2012 yilga nisbatan		2011 yil 2010 yilga nisbatan	
		2010	2011	2012	2013	(+, -)	%	(+, -)	%
1.	Yalpi mahsulot, ming so`m	34708200	40534266	49537140	61235670	11698530	123,6	5826066	116,8
2.	Mahsulot tannarxi, ming so`m	31190380	36650036	42252906	52248705	9995799	123,7	5459656	117,5
3.	Yalpi foyda, ming so`m	3517820	3884230	7284234	8986965	1702731	123,4	366410	110,4
4.	O`rtacha yillik xodimlar soni, kishi	554	563	542	487	-55	89,9	9	101,6
5.	Asosiy vositalar o`rtacha yillik qiymati	8141329	9132459	12445015	17547471	5102456	141	991130	112,2
6.	1 o`rtacha ishchi xisobiga yaratilgan YM, kishi/m.so`m	62650	71997	91397	125741	34344	137,6	9347	114,9
7.	Fond qaytimi	4,26	4,44	3,98	3,49	-0,49	87,7	0,18	104,2
8.	Fond sig`imi	0,23	0,23	0,25	0,29	0,04	116	0	100
9.	Rentabellik, %	11,3	10,6	17,2	17,2	O`zgarmagan		0,7 punktga kamaygan	

*Manbaa: “Jomboydonmahsulot” OAJning statistik ma`lumotlari

Jadval ma`lumotlaridan ko`rinib turibdiki, jamiyat tomonidan ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot 2013 yil 2012 yilga nisbatan 11698530 ming so`mga yoki 23,6 % ga oshgan. 2011 yil yalpi mahsulot 2010 yilga nisbatan 5826066 ming so`mga yoki 16,8 % ga oshirilgan.

Jamiyatda mahsulot tannarxi xam usib borganligi jadval malumotlaridan ko`rish mumkin. Unga ko`ra 2013 yil 2012 yilga nisbatan 9995799 ming so`mga yoki 23,7 % ga oshgan. Ushbu ko`rsatkich 2011 yil 2010 yilga nisbatan 549656 ming so`mga yoki 17,5 % ga oshgan.

Natijada yalpi foyda 2013 yil 8986965 ming so`m bo`lib, 2012 yilga nisbatan 23,4 % ga oshgan. 2011 yil 2010 yilga nisbatan yalpi foyda 366410 ming so`mga yoki 10,4 % ga kamaygan.

Jamiyatda o`rtacha yillik xodimlar soni tahlil qilinayotgan yillarda kamayganligini kuzatish mumkin. 2013 yil 487 kishi mehnat qilgan bo`lsa, 2012 yilga nisbatan 55 kishiga yoki 10,1 % ga kamaygan. Xodimlarning o`rtacha yillik soni 2011 yilda 563 kishi bo`lib, 2010 yilga nisbatan 9 kishiga yoki 1,6 % ga oshgan. Buning natijasida mehnat unumdorligi oshib borishi kuzatilgan. Omillar

tasiri sifatida qaraganda ushbu 2 omil yani mehnat resurslari va yalpi mahsulor ijobiy ta'sir ko'rsatgan. 1 o'rtacha xodim xisobiga 2013 yil 125741 ming so'mlik yalpi mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lib, 2012 yilga nisbatan 37,6 % ga oshgan. Ushbu mehnat unumdorligi ko'rsatkichi 2011 yil 71997 ming so'm bo'lib, 2010 yilga nisbatan 14,9 % ga oshgan.

Jamiyatda o'rtacha yillik asosiy vositalar qiymati 2013 yil 17547471 ming so'm bo'lib, 2012 yilga nisbatan 5102456 ming so'mga yoki 41 % ga oshgan. 2011 yil 2010 yilga nisbatan esa 991130 ming so'mga yoki 12,2 % ga oshgan. Jamiyatda fond qaytimi 2013 yil 3,49 bo'lib, 2012 yilga nisbatan 0,49 yoki 12,3 % ga kamaygan. Fond qaytimi 2011 yil 4,44 bo'lib, 2010 yilga nisbatan 0,18 ga yoki 4,2 % ga kamaygan. Fond qaytimiga teskari bo'lgan fond sig'imi ko'rsatkichi 2013 yil 0,29 bo'lib 2012 yilga nisbatan 0,04 ga yoki 16 % ga, 2011 yil 2010 yilga nisbatan o'zgarmagan.

Jamiyatda rentabellik darajasi 2012 yil 17,2 %, 2013 yil 17,2 % bo'lib, 2013 yil 2012 yilga nisbatan o'zgarmagan. 2011 yil esa 10,6 % bo'lib, 2010 yilga nisbatan 0,7 punktga kamaygan.

Endigi 3.2.3-jadvalimizda "Jomboydonmahsulotlari" aksiyadorlik jamiyati bo'yicha ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tannarxini tahlil qilamiz.

Javdal ma'lumotlariga ko'ra jamiyat tomonidan 2012 yil un ishlab chiqarish 58186 tonna bo'lib, un ishlab chiqarish uchun 9040758,5 ming so'mlik yordamchi materiallar sarf qilingan. Bundan tashqari un ichlab chiqarishda band bo'lgan xodimlarga 1404719,9 ming so'mlik ish haqi ajratilgan. Ishlab chiqarish jarayonida foydalanilgan elektr energiyasiga 735239 ming so'm sarflangan.

Ijtimoiy sug'urta xarajatlariga 56188,8 ming so'm, boshqa xarajatlarga esa 26764119 ming so'm sarflangan. Natijada umumiy un mahsulotlari tannarxi 29901025 ming so'mni tashkil qilib, jamiyat 4006328,7 ming so'm yalpi foyda olishga erishgan. Jamiyat ishlab chiqarayotgan 1 tonna unning sotish bahosi 582741 so'm. 1 tonna unning tannarxi 513887 so'm bo'lib natijada 1 tonna un

3.2.3-jadval

“Jomboydonmahsulotlari” aksiyadorlik jamiyati bo’yicha ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar turlari buyicha tannarxi va samaradorligi tahlili (ming so`m, 2012 y.) *

№	Maxsulot turi	Ishlab chiqarilgan mahsulot, ton.	Yordamchi materiallar	Elektr energiya	Ish haqi	Ijtimoiy sug’urta xarajati	Boshqa xarajatlar	Maxsulot tannarxi	Yalpi foyda	Shu jumladan		1 tonna mahsulot sotish bahosi, so`m	1 tonna mahsulot tannarxi, so`m	1 tonna mahsulot sotishdan foyda, so`m	Renta-bellik darajasi, %
										Davr xarajatlari	Sof foyda				
1	Un	58186	940758,5	735239	1404719,9	56188,8	26764119	29901025	4006328,7	3327971,7	423209,1	582741	513887	68854	13,4
2	Omixta yem	40795	-	101199,7	502643,6	20105,7	7423260,2	8047209,2	2768008,9	2317694	292399	265111	197260	67852	34,4
3	Urug’lik	5259	194992,7	5594	176672,5	7066,9	3567088,7	3951414,8	509896,4	297140,3	53862,9	848319	751362	96957	12,9
	jami	104240	1286924	842944,9	2160516	86420,6	37876100	42252906	7284234	5942806	769471	X	X	x	17,2

*Manbaa: “Jomboydonmahsulot” OAJning statistik ma’lumotlari

sotish 68854 so'm foyda bilan yankunlangan. Un ishlab chiqarish rentabelligi 13,4% ni tashkil qilgan.

Jamiyat tomonidan omixta yem ishlab chiqarishda jami 8047209,2 ming so'm sarf qilinib, shundan elektr energiyaga 101199,7 ming so'm, ish xaqiga 502643,6 ming so'm, ijtimoiy sug'urta xarajatiga 20105,7 ming so'm, boshqa xarajatlarga 7423260,2 ming so'm safr qilingan.

Ushbu xarajatlarning salmoqli qismini 92,2%i boshqa xarajatlar egallagan. Davr xarajatlari jamiyatda 2317694 ming so'm bo'lib, omixta yem ishlab chiqarishdan 292399 ming so'm sof foyda olinishiga erishilgan. 1 tonna omixta yemning sotish bahosi 265111 so'm, tannarxi esa 197260 so'm bo'lib, 1 tonna omixta yemdan olingan foyda 67852 so'm, natijada rentabellik darajasi 34,4 % bo'lishiga erishilgan.

Jamiyatning asosiy ishlab chiqarish mahsulotlaridan biri urug'lik tayyorlashdir. Urug'lik tayyorlash jarayoniga jamiyat 3951414,8 ming so'm sarf-xarajat qilgan. Ushbu xarajatlardan yordamchi materiallarga 194992,7 ming so'm, elektr energiyaga 5594 ming so'm, ish xaqiga 176672,5 ming so'm, ijtimoiy sug'urta xarajatlariga 7066,9 ming so'm, boshqa xarajatlarga 3567088,7 ming so'm sarf qilingan. Jamiyat urug'lik tayyorlashdan 509896,4 ming so'm yalpi foyda va 53862,9 ming so'm sof foyda olishga erishgan. 1 tonna urug'likning sotish bahosi 848319 ming so'm bo'lib, tannarxi 751362 so'm. 1 tonna urug'lik sotishdan olingan foyda 96957 so'm bo'lishi rentabellik darajasining 12,9% bo'lishiga olib kelgan.

Jamiyat 2012 yil barcha turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish uchun 42252906 ming so'm sarf qilib, 7284234 ming so'm yalpi foyda, 769471 ming so'm sof foyda olishgan. 2012 yilda jamiyat davr xarajatlariga 5942806 ming so'm sarf qilingan. Yakuniy samaradorlik ko'rsatkichi xisoblangan rentabellik darajasi 2012 yilda 17,2% bo'lishiga erishilgan.

4 “JOMBOYDONMAHSULOTLARI” OAJ ISHLAB CHIQARILGAN MAHSULOTLAR RENTABELLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI

4.1. “Jomboydonmahsulotlari” OAJ mehnat resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlari

Mehnat resurslari xalq xo'jaligining muhim resurslaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi «Mehnat Kodeksi»ning 1-bob 8-moddasida mehnatning ulug'vorligi to'g'risida shunday deyilgan: «Har bir shaxsning mehnat huquqlarini himoya qilish kafolatlanadi, bu himoya mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya qilinishini tekshiruvchi va nazorat qiluvchi organlar, shuningdek mehnat nizolarini ko'ruvchi organlar tomonidan amalga oshiriladi». Mehnat – bu insoning maqsadli faoliyati bo'lib, bu jarayonda u tabiat predmetlarini o'zining ehtiyojlarini qondirish uchun moslashtiradi va o'zgartiradi. O'z kuchini qo'shgani holda inson, mehnat qurollaridan foydalanib, tabiat bergan materiallarni, kishilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondiradigan moddiy ne'matlarga, boyliklarga aylantiradi. Mehnat jarayoni, insoning ish joyida, uning mehnat faoliyatining ma'lum natijalariga erishishga yo'naltirilgan harakatlarining to'plamini bildiradi.

Mehnat insonga xos xususiyat. Insonning jismoniy va aqliy faoliyati mehnat hisoblanadi. Ishni traktorlar, mashinalar, ishchi hayvonlar bajarishi mumkin. Mehnat esa faqat ongli faoliyat natijasidir. Ishlab chiqarishning samaradorligi ko'p jihatdan mehnatning holatiga bog'liq. Agarda mehnat ongli ravishda qilinayotgan bo'lsa, uning unumdorligi yuqori bo'ladi. Har bir mamlakat aholisining mehnat qilish qobiliyatiga ega qismi uning mehnat resurslarini tashkil etadi.

Iqtisodiy fan “mehnat resurslari”, “iqtisodiy faol aholi”, “iqtisodiyotda band bo'lgan aholi” kabi tushunchalarni bir-biridan farqlaydi. Bu tushunchalar mohiyati va o'lchami bo'yicha bir-biridan farq qiladi. Mehnat resurslari miqdoriy jihatdan iqtisodiy faol va iqtisodiyotda band bo'lgan aholiga nisbatan katta. Iqtisodiy faol aholi esa iqtisodiyotda band bo'lgan aholidan miqdor jihatdan katta.

Nafaqa yoshidagilar va mehnat qilish qobiliyatiga ega o'smirlar ham aholining kattagana qismini tashkil etadi. Lekin jamiyat uchun faol mehnat resurslari 16 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan ayollar va 16 yoshdan 60 yoshgacha

bo'lgan erkaklar hisoblanadi. Iqtisodiy fan shu mehnat resurslaridan eng faoli bo'lganlarni, ya'ni 22 yoshdan 33 yoshgacha bo'lgan kishilarni alohida o'rganadi. Mehnat resurslardan foydalanishning darajasi va iqtisodiy samaradorligini aniqlash katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Mehnat resurslaridan foydalanish darajasi va samaradorligini to'liq ko'rsata oladigan integral ko'rsatkich yo'q. Mehnat resurslaridan foydalanish darajasi va samaradorligini ko'rsatkichlar tizimi orqali aniqlash maqsadga muvofiq. Ko'rsatkichlar tizimi birgalikda mehnat resurslaridan foydalanishning darajasi va iqtisodiy samaradorligi to'g'risida mukammalroq ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin.

Xalq xo'jaligida resurslaridan foydalanishning darajasi quyidagi ko'rsatkichlar bilan aniqlanadi:

1). Har bir ishchi xodimning bir yilda ishlagan kunlari.

2). Yil davomida ishlashi lozim bo'lgan kundan foydalanish koeffitsiyenti. Bu haqiqatda ishlagan kunlarni me'yor bo'yicha ishlashi lozim bo'lgan yillik ish kunlari miqdoriga bo'lish orqali aniqlanadi.

3). Mehnat resurslaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi yil davomida bir ishchi xodim hisobiga ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot miqdori bilan aniqlanadi. Bu ko'rsatkichni sarflangan kishi soatlariga nisbatan aniqlash mehnatning samaradorligini to'g'riroq aniqlash imkonini beradi.

4) Mehnat resurslarning qo'nimsizlik koeffitsiyenti

$$Kt = \frac{MRab}{MRs}$$

Bunda: Kt – mehnat resurslarning qo'nimsizlik qoeffitsiyenti;

$MRab$ – o'rganilayotgan davrda o'z arizasiga binoan yoki mehnat qoidalarini buzganligi uchun majburiy bo'shatilganlar soni;

MRs – mehnat resurslarining o'rtacha yillik soni.

5) Kadrlarni muqimlik (stabillik) koeffitsiyenti

$$Km = (1 - \frac{MRab}{MRsb} + \frac{MRya}{MRsx}) \times 100$$

Bunda: Km - kadrlarni muqimlik (stabillik) koeffitsiyenti

MRab - o'rganilayotgan davrda o'z arizasiga binoan yoki mehnat qoidalarini buzganligi uchun majburiy bo'shatilganlar soni;

MRsb va MRsx – bazis va hisobot yillarda (davrda) korxonada ishlayotganlarning o'rtacha yillik soni.

6) Mehnatni mavsumiylik koeffitsiyenti

$$MRmk = \frac{MXmaks}{MXo'r}$$

Bunda: MRmk – mehnatning mavsumiylik koeffitsiyenti;

MX maks – oylik mehnatning maksimal sarfi;

MX o' – mehnatning oylik o'rtacha sarfi.

7) Ishsizlik darajasi

$$Id = \frac{Is}{IFs(IK)} \times 100$$

Bunda: Id – ishsizlik darajasi, %

Is – ishsizlar soni, kishi

IFs (IK) – iqtisodiy faol aholi yoki ishchi kuchlari soni, kishi

8) Mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi

$$MRt = \frac{MR}{Er, ga}$$

Bunda: MRt – 100 gani mehnat resurslari bilan ta'minlanganligi;

MR – Ishchi xodimlar soni, kishi;

Yer – yer maydoni (jami, ekin, sug'oriladigan yer maydonlari), ga.

9) Mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti

$$MRtk = \frac{Mrm}{MRr}$$

Bunda: MRtk - Mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti

MRm – mavjud mehnat resurslari soni, kishi;

MRr – rejalashtirilgan ishlab chiqarishni amalga oshirish uchun talab qilinadigan mehnat resurslari, soni.

Mehnat resurslaridan foydalanish darajasini ko'rsatkichlar tizimi orqali aniqlanib, ularni har biri mehnat resurslaridan foydalanishning ayrim tomonlarini ifoda etadi. Ularni birgalikda aniqlash va tahlil qilish to'g'ri xulosalar chiqarish va foydali takliflar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Mehnat unumdorligi iqtisodiy kategoriya bo'lib, konkret sarflangan mehnatning natijaviyligi yoki samaradorligidir. Ayrim iqtisodchilar mehnat unumdorligini vaqt birligi ichida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori, deb biladilar. Boshqalari esa mehnat unumdorligi deganda mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun sarflangan vaqt miqdorini tushunadilar. Ayrim iqtisodiy adabiyotlarda mehnat unumdorligi konkret sarflanayotgan mehnatning ma'lum vaqt ichida mahsulot yarata olish qobiliyatidir, degan tushunchalar ham berilgan.

Aniq sarflangan mehnatning natijaviyligi mehnat unumdorligidir degan tushuncha mehnat unumdorligining mazmunini boshqalariga nisbatan aniqroq ifoda etadi. Vaqt birligi ichida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori mehnat unumdorligining asosiy ko'rsatkichini ifodalaydi. Mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun sarflangan vaqt miqdori ham mehnat unumdorligining ikkinchi ko'rsatkichini ifoda etadi. U iqtisodiy adabiyotlarda mehnatning intensivligi deb ham ataladi. Agarda aniq sarflangan mehnatning ma'lum vaqt ichida mahsulot yarata olish qobiliyati mehnat unumdorligi bo'lsa, mehnat unumdorligi ko'rsatkichi har doim bir xil miqdorda bo'lgan bo'lar edi. Juda kamdan-kam hollarda bir xil ko'rsatkichga ega bo'lishi mumkin.

Xalq xo'jaligida mehnat unumdorligi ko'rsatkichlar tizimi orqali aniqlanadi. Bunda natural va qiymat ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Natural ko'rsatkichlarga vaqt birligi ichida ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot va bir birlik mahsulot (natura shaklidagi) ishlab chiqarish uchun sarflangan vaqt miqdori kiradi. Albatta, mehnat unumdorligining natural ko'rsatkichlari har bir mahsulot turi bo'yicha alohida hisoblanadi. Bu ko'rsatkichlar ma'lum kamchilikka ega. Bir ishchi xodim yil davomida turli tarmoqlarda faoliyat ko'rsatishi mumkin. Bazan bir kunning o'zida bir nechta turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish jarayonlarida ishtirok etadi. Bu, o'z navbatida, ishchi xodimning ish vaqtlarini u ishlagan sohalarga taqsimlash

muammosini tug'diradi. Albatta, iqtisodchilar tomonidan mehnat sarflarini mahsulotlarga taqsimlash usullari ishlab chiqilgan. Shunga qaramasdan mehnat unumdorligining natural ko'rsatkichlari haqiqiy holatni juda aniq belgilay olmaydi. Shu sababli mehnat unumdorligining qiymat ko'rsatkichlaridan kengroq foydalaniladi.

Bir ishchi xodim hisobiga bir yilda ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot miqdori. Bu ko'rsatkich mehnat unumdorligining eng asosiy ko'rsatkichlaridan biridir. Bu, yil davomida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorini ishchi xodimlarning o'rtacha yillik soniga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. Bu ko'rsatkich sarflangan mehnatga nisbatan ham hisoblanadi. Bunda yalpi mahsulot uni ishlab chiqarilgan vaqt, kishi-soatlariga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. Mehnat unumdorligi kishi-soatlari bo'yicha aniqroq va to'g'riroq hisoblanadi. Chunki xodimlarning o'rtacha yillik soni haqiqatda sarflangan mehnatni kishi soatlaridek aniq belgilamaydi. Bir kishining 280 yoki 260 kun ishga chiqqani uning haqiqatda har kuni necha soat ishlaganini bildirmaydi.

Mehnat unumdorligining bu ko'rsatkichlarini hisoblaganda yalpi mahsulotni hisoblash usullari ham katta ahamiyatga ega. Amalda yalpi mahsulot joriy va solishtirma narxlarda hisoblanadi. Uzoq davrlarga mehnat unumdorligining dinamikasini ko'rganda solishtirma baholarda hisoblangan yalpi mahsulotni olish talab qilinadi. Bu ko'rsatkichlarning yildan – yilga oshgani ijobiy hisoblanadi.

1 yoki 100 yoki 1000 so'mlik yalpi mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan vaqt mehnat unumdorligining ikkinchi iqtisodiy ko'rsatkichidir. Sarflangan mehnat kishi-soatlarida o'lchanadi. Bu ko'rsatkich natijalari yildan – yilga kamayib borgani yaxshi. Ya'ni bir birlik mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflanayotgan kishi-soatlari miqdori kamayib borishi zarur. Bu iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi.

Endigi jadvalimizda jamiyatda mehnat resurslaridan foydalanish holatini ko'rib chiqamiz.

4.1.1-jadval

Mehnat resurslari va ulardan foydalanish samaradorligi tahlili*

№	Ko'rsatkichlar	Yillar				2013 yil 2012 yilga nisbatan		2011 yil 2010 yilga nisbatan	
		2010	2011	2012	2013	(-,+)	%	(-,+)	%
1.	Yalpi mahsulot, ming so'm	34708200	40534266	49537140	61235670	11698530	123,6	5826066	116,8
2.	Mahsulot tannarxi, ming so'm	31190380	36650036	42252906	52248705	9995799	123,7	5459656	117,5
3.	Yalpi foyda, ming so'm	3517820	3884230	7284234	8986965	1702731	123,4	366410	110,4
4.	O'rtacha yillik xodimlar soni, kishi	554	563	542	487	-55	89,9	9	101,6
	shu jum: mahsulot yaratuvchilar soni, kishi	393	415	423	383	-40	90,5	22	105,6
	ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan ishchilar soni, kishi	161	148	119	104	-15	87,4	-13	91,9
5.	1 o'rtacha ishchi xisobiga yaratilgan YM, kishi/m.so'm	62650	71997	91397	125741	34343,6	137,6	9347	114,9
6.	1 o'rtacha mahsulot yaratuvchi xisobiga YM, kishi/m.so'm	88316	97673	117109	159884	42775,26	136,5	9357	110,6
7.	1 o'rtacha yillik ish/chiq. bilan bog'liq bo'lmagan ishchi xisobiga yaratilgan YM, kishi/m.so'm	215579	273880	416278	588805	172526,5	141,4	58301	127,0

*Manbaa: "Jomboydonmahsulot" OAJ statistik ma'lumotlari

Biz jamiyatda mehnat rasurslaridan foydalanish samaradorligini aniqlash va tahlil qilish uchun yalpi mahsulot qiymatidan foydalandik. Jamiyatda yaratilgan yalpi mahsulot o'rganilayotgan davrda o'sganligi kuzatildi.

Jamiyatda o'rtacha yillik xodimlar soni esa 2010 yil 554 kishi, 2011 yil 563 kishi, 2012 yil 563 kishi, 2013 yil 487 kishi bo'lib, 2013 yil 2012 yilga nisbatan 55 kishiga yani 9,1% ga, 2011 yil 2010 yilga nisbatan esa 9 kishiga yani 1,6% ga xodimlar kamaygan. O'rtacha 1 xodim xisobiga 2010 yil 62650 ming so'm, 2011 yil 71997 ming so'm, 2012 yil 91397 ming so'm, 2013 yil 125741 ming so'mlik yalpi mahsulot yaratilgan. Ushbu ko'rsatkich 2013 yil 2012 yilga nisbatan 37,6%, 2011 yil 2010 yilga nisbatan 14,9% ga oshirilishiga erishilgan.

Jadval ma`lumotlaridan ko`rinib turibdiki mehnat resusrlaridan foydalanish samaradorligi oshishiga erishilgan. 2011 yil xodimlar soni oshgan bo`lsa xam mehnat unumdorligi ko`rsatkichining pasaymaganligini ko`rishimiz mumkin.

4.2. “Jomboydonmahsulotlari” OAJ asosiy vositalardan samarali foydalanish imkoniyatlari

Hozirgi kunda mamlakatimiz xalq xo'jalik korxonalari oldida turgan dolzarb muammolardan biri bu ular da moddiy-texnika resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishdir. Xalq xo'jaligini moddiy-texnika bazasi deganda, xalq xo'jaligida mavjud bo'lgan barcha mehnat vositalari va mehnat buyumlari yig'indisiga tushuniladi. Uning tarkibiga yer resurslari, ishlab chiqarish imoratlari, inshootlari, mashina va jihozlar, transport vositalari, suv resurslari, urug'lik, neft mahsulotlari, o'g'it, kimyo vositalari va boshqalar kiradi.

Qishloq xo'jaligi moddiy-texnika bazasi esa xalq xo'jaligini boshqa tarmoqlaridan bir qator xususiyatlari bilan farq qiladi:

Birinchidan, qishloq xo'jaligi moddiy-texnika bazasida yer asosiy rol o'ynaydi. Qishloq xo'jaligi asosiy ishlab chiqarish vositalarining rivojlanishi bevosita yerdan qay darajada foydalanishga bog'liq. Yerning unumdorligi hap xil bo'lib, mahsulot birligi ychyn har xil miqdorda xarajat sarflanadi. Bu esa har xil unumdorlikka ega bo'lgan yerlarda bir xil miqdorda asosiy va aylanma vositalarga ega bo'lish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Ikkinchidan, qishloq xo'jaligi moddiy-texnika bazasi har doim tabiiy sharoitlar ta'sirida bo'ladi. Qishloq xo'jaligi hududiy xarakterga ega bo'lib, har bir hududda tuproq - iqlim sharoitlari har xil bo'lishi tufayli har xil sistyemadagi mashinalardan foydalanishga to'g'ri keladi. Shuning uchun hududlarda va hududlar ichidagi xo'jaliklarda moddiy-texnika bazasining tarkibi ham har xil bo'ladi.

Uchinchidan, qishloq xo'jaligida ish davri bilan ishlab chiqarish vaqti bir biriga mos kelmasligi tufayli, ishlab chiqarish mavso'miy xususiyatga ega bo'lib, bu moddiy-texnika vositalaridan unumli foydalanishga salbiy ta'sir etadi. Ishlab chiqarish mavso'miy bo'lishi zahira urug'lik, ozuqa, yoqilg'i moylash materiallari va boshqalarga ega bo'lish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

To'rtinchidan, qishloq xo'jaligi moddiy-texnika bazasining bir qismi jonli organizm (ishchi hayvonlar, mahsuldor mollar, parrandalar, ko'p yillik daraxtlar va

hokazo)lardan iborat bo'lib, ulardan samarali foydalanish uchun ma'lum ishlab chiqarish vositalariga ega bo'lmoqlik kerak.

Beshinchidan, qishloq xo'jaligi taraqqiy etgan transport xizmati, sifatli yo'l qurilishini amalga oshirish, qishloq xo'jaligi texnikalarini ta'mirlash va saqlash ko'p miqdorda sarflar qilishni taqozo etadi,

Shuningdek, Har qanday ishlab chiqarish kabi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun ham ishlab chiqarish vositalarining me'yoriy hajmda mavjud bo'lishini taqozo etadi.

Iqtisodiy nazariya fanidan ma'lumki, mehnat predmeti bilan mehnat qurollari birgalikda ishlab chiqarish vositalarini tashkil qiladi.

Mehnat predmetlariga ta'sir ko'rsatib, mahsulot ishlab chiqarishda odamlar tomonidan foydalaniladigan hamma buyumlar mehnat vositalari (qurollari) deyiladi. Odam mehnati ishlab chiqarishning qaysi moddiy elementlariga qaratilgan bo'lsa, o'sha moddiy element mehnat predmeti deb ataladi. Xo'jalik ixtiyorida bo'lgan mana shu ishlab chiqarish vositalari, ishlab chiqarish fondlari shaklida namoyon bo'ladi, bo'larning tarkibiga pulda baholanmagan, ya'ni korxonaning balansi aktivida ko'rsatilmagan tabiiy ishlab chiqarish vositalari kirmaydi. M: yer va suv to'liq baholanmaydi, quyosh issiqligi, shamol va boshqalar mutloq baholanmaydi.

Ishlab chiqarish fondlari xalq xo'jaligida alohida iqtisodiy kategoriya shaklida foydalaniladi.

Asosiy ishlab chiqarish fondlari deb, ishlab chiqarish jarayonida bir necha bor ishtirok etib, o'zining tashqi ko'rinishini o'zgartirmaydigan, qiymatini mahsulot tannarxiga asta-sekinlik bilan o'tkazib boruvchi vositalarga aytiladi. Bo'larga ishlab chiqarish binolari, inshootlar, mashina va asboblari, transport vositalari, xo'jalik va ishlab chiqarish inventarlari va boshqa, ya'ni bir yildan ortiq ishlatiladigan vositalar kiradi.

Hozirgi vaqtda amaldagi klassifikasiyaga muvofiq xo'jaliklardagi asosiy ishlab chiqarish fondlari o'zining moddiy (natural) xarakteriga va ishlab chiqarish jarayonida bajaradigan xizmatiga qarab quyidagi guruhlariga bo'linadi;

1. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan asosiy ishlab chiqarish fondlari (imorat, inshootlar, o'zatuvchi moslamalar, mashina va qurollar, mahsuldor hayvonlar, ko'p yillik daraxtlar va boshqalar).

2. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan ishlab chiqarish fondlari (sanoat ishlab chiqarish vositalari, qurilish vositalari, savdo va umum ovqatlanish vositalari va boshqalar).

Har bir xalq xo'jalik korxonasining fondlar bilan ta'minlanganligi ishlab chiqarishning to'g'ri va soz olib borilishi garovidir. Jamiyatdagi mavjud moddiy texnika resurslari holatini ularning asosiy fondlari misolida tahlil qilib o'tamiz.

4.2.1-jadval

Asosiy vositalar xarakati va ulardan foydalanish samaradorligi tahlili (ming so'm)*

		Yillar				2013 yil 2010 yilga nisbat o'zgarishi	
		2010	2011	2012	2013	(+,-)	%
1	Yalpi mahsulot	34708200	40534266	49537140	61235670	26527470	176,4
2	Asosiy vositalar qiymati:						
	-yil boshiga	7442086	9024057	10793495	15705033	8262947	2,1 m
	-yil oxiriga	8840572	9240861	14096535	19389909	10549337	2,2 m
	-o'rtacha yillik	8141329	9132459	12445015	17547471	9406142	2,2 m
3	Jamg'arilgan eskirish	3584202	3946284	5504866	7149717	3565515	1,9 m
4	Qoldiq qiymat	3857884	5077773	5288629	8555316	4697432	2,2 m
5	Fond qaytimi	4,26	4,44	3,98	3,48	-0,76	82,2
6	Fond sig'imi	0,23	0,23	0,25	0,29	0,06	126,1

*Manbaa: "Jomboydonmahsulot" OAJning statistik ma'lumotlari

Jadvalda jamiyatning asosiy vositalardan foydalanish samaradorligining xozirgi xolati tahlil qilingan bo'lib, unga ko'ra jamiyatda asosiy vositalar o'rtacha qiymati 2010 yil 8141329 ming so'm, 2011 yil 9132459 ming so'm, 2012 yil 12445015 ming so'm, 2013 yil 1754741 ming so'm bo'lib, 2013 yil 2010 yilga nisbatan 9406142 ming so'mga yoki 2,2 martaga oshgan. Jamgarilgan eskirish summasi 2013 yil 7149717 ming so'm bo'lib, 2010 yilga nisbatan 3565515 ming so'mga yoki 1,9 martaga oshgan. Natijada yil boshiga qoldiq qiymat 2013 yil

8555316 ming so`m bo`lib, 2010 yilga nisbatan 4697432 ming so`mga yoki 2,2 martaga oshgan.

Jamiyatda asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini belgilovchi ko`rsatkich fond qaytimini tahlil qilar ekanmiz, 2013 yil fond qaytimi 3,48 bo`lib 2010 yilga nisbatan 0,76 ga yoki 17,8%ga kamaygan. Tahlil qilingan yillarda eng samarali fond qaytimi 2011 yilda kuzatilgan.

Fond sig`imi ko`rsatkichi esa 2013 yil 0,29 bo`lib, 2010 yilga nisbatan 0,06 ga oshgan. Fond sig`imi ko`rsatkichi tahlil qilingan yillarda yildan yilga oshib borilgani aniqlandi.

Jamiyatda asosiy vositalardan samarali foydalanish yo`llari sifatida shuni takidlashimiz kerakki, kelgusida ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish chora-tadbirlarini amalga oshirish lozim. Xozirda jamiyatning oldida turgan muommalardan biri xam imkoniyatlardan to`liq foydalanilmayotganligidir. Bunda jamiyat qabul qilgan g`alla xom-ashyosi etishmasligi va qabul qilingan xom-ashyoning bir qismi turdosh g`alla qayta ishlobchi korxonalarga ko`chirilishidir. kelgusida jamiyat xom-ashyo emas, balkim tovar mahsulot sotish imkoniyatidan foydalanilsa asosiy vositalardan foydalanish samaradorligi oshishiga erishiladi.

4.3. Jamiyatda rentabellikni oshirish omillari va imkoniyatlardan oqilona foydalanish

Rentabellikni oshirish omillari deganda eng avvalo foyda omillari tushuniladi. Foyda omillari 2 guruhga bo'linadi:

1. Mahsulot ishlab chiqaruvchiga bog'liq bo'lgan va subyektiv xarakterga ega bo'lgan ichki omillar.

2. Mahsulot ishlab chiqaruvchiga bog'liq bo'lmagan va obyektiv xarakterga ega bo'lgan tashqi omillar.

1. Ichki omillarga sotiladigan mahsulot miqdori, uning sifati, ishlab chiqarish xarajatlari kiradi. Sotiladigan mahsulot miqdori yalpi mahsulot hajmiga va uning tovarlilik darajasiga bog'liq. Yalpi mahsulot hajmining o'sishida sotishga mo'ljallangan mahsulotning miqdori absolyut ko'payadi. Shuningdek, uning ishlab chiqarish ichki iste'moliga ketadigan qismining o'sishi nisbiy ko'payadi. Yalpi mahsulotning ana shu ichki iste'molga ketadigan qismi o'sish sur'atining pasayishi tovarlilik darajasining oshishiga va shu asosda pul tushumining ko'payishiga sharoit yaratadi. Yuqori sifatli mahsulot ancha yuqori sotish bahosini ta'minlagani uchun, mahsulot sifati pul tushumi orqali foyda miqdoriga ta'sir ko'rsatadi.

Pul tushumi miqdori mahsulotni sotish muddatlariga, sotish bozoriga va uning tarkibiga bog'liq. Bundan tashqari pul tushumi sotish kanallariga ham bog'liq. Uning davlatgami, matlubot kooperasiyasigami yoki bozorgami sotilishi ham alohida ahamiyatga ega.

Foydaning muhim omillaridan biri mahsulot tannarxidir. Ishlab chiqarish xarajatlarining pasayishi yoki oshishi foyda miqdoriga ancha sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

2. Tashqi omillarga mahsulotni ishlab chiqaruvchilar taklifi va ular o'rtasidagi raqobat, mahsulotga bo'lgan bozor talabi kabilar kiradi. U yoki bu mahsulotga yuqori yoki past talab, shuningdek raqobatchilarning mavjudligi yoki qatnashmasligi, sotiladigan mahsulot miqdoriga, baho darajasiga va pirovard natijada foyda miqdoriga ta'sir qiladi.

Xalq xo'jaligi ishlab chiqarishining rentabelligi omillari ekstensiv va intensiv xarakterga ega. Ekstensiv omillar – bu rentabellikka sotilayotgan mahsulotning miqdoridagi o'zgarishlar orqali ta'sir ko'rsatuvchi omillardir. Intensiv omillar – sotish baholarining o'sishi va mahsulot tannarxining pasayishi orqali ta'sir ko'rsatadigan omillardir.

Xalq xo'jaligi ishlab chiqarishining rentabellik ko'rsatkichlari yillar bo'yicha oz yoki ko'p miqdorda tebranib turadi, bu ham bo'lsa, mahsulot tannarxi va bahoning o'zgarishi oqibatidadir. Shuning uchun rentabellik dinamikasi tendensiyasini tahlil etganda, shuningdek u yoki bu mahsulotni ishlab chiqarish qulayligini iqtisodiy asoslash paytida bir necha yillardagi rentabellikning o'rtachasidan foydalaniladi. o'rtacha ko'p yillik baholar ko'rsatkichida sotilgan mahsulotning miqdori va sifati to'g'risida o'rtacha ma'lumotlar aks etadi, mahsulot birligining o'rtacha ko'p yillik tannarxida esa iqlim sharoiti va ishlab chiqarish sharoitlaridagi o'zgarishlar ta'siri aks etadi. Bir va bir turdagi mahsulotlarning qator yillardagi o'rtacha rentabellik ko'rsatkichlarini taqqoslash shu turdagi mahsulot ishlab chiqarish rentabelligining o'zgarishidagi barqaror tendensiyalar haqida obyektiv ma'lumotlar olish imkoniyatini beradi; turli xildagi mahsulotlar o'rtacha rentabellik ko'rsatkichlarini taqqoslash esa, qaysi turdagi mahsulot qulayroq, daromadliroq ekanligi to'g'risida fikr yuritishga imkon beradi.

Xalq xo'jaligi ishlab chiqarishining rentabelligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash, bir tomondan, mahsulot sotishdan kelgan pul tushumini ko'paytirish imkoniyatlarini aniqlashga, boshqa tomondan–mahsulot tannarxini pasaytirish imkoniyatlaridan to'laroq foydalanishni talab etadi.

G'alla qayta ishlash mahsulotlari tannarxi korxona xajmi va mulk shaklidan qat'iy nazar maxsus nizom asosida xisob–kitob qilinadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1999 yil 5 fevraldagi qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulot (ish, xizmatlar)ni ishlab chiqarish vasotish xarajatlarining tarkibi tug'risida»gi Nizomda xo'jalik yurituvchi subyektlar – yuridik shaxslarning, shuningdek yuridik shaxs bo'lmagan xolda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy

shaxslarning mahsulot (ish, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini aniqlashning yagona metodologik asoslari belgilangan.

Nizomda quyidagi kursatkichlar va ularning tashkil topish xususiyatlari ko'rsatilgan:

a) Moliyaviy natijalarni shakllantirish;

b) Xo'jalik yurituvchi subyekning molichviy – xo'jalik faolichti bilan bog'liq xarajatlar ro'yxati;

c) Xo'jalik yurituvchi subyektlarning ishlab chiqarish – xo'jalik faolichti natijasida olinadigan daromadlar ro'yxati;

d) Tovar – moddiy zaxiralarni, tug'allanmagan ishlab chiqarishlarni, shuningdek kelgusi davr xarajatlarini baholash;

e) Soliq solinadigan bazani aniqlash.

Ulardan «b» bo'limi ko'rsatkichini ko'rib chiqamiz.

Mazkur Nizomga muvofiq mahsulot (ish, xizmat) tannarxiga kiritiladigan xarajatlar va davr xarajatlari ro'yxati:

Mazkur Nizomga muvofiq barcha xarajatlar quyidagilarga guruxlanadi:

Mahsulotning ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar:

a) bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar;

b) bevosita va bilvosita mehnat xarajatlari;

c) boshqa bevosita va bilvosita xarajatlar, shu jumladan ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan ustama xarajatlar.

Ishlab chiqarish tannarxiga kiritilmaydigan, biroq asosiy faoliyatdan olingan foydada xisobga olinadigan davr xarajatlariga quyidagilar kiradi:

a) sotish xarajatlari;

b) boshqarish xarajatlari (ma'muriy sarf xarajatlar);

c) boshqa operasion xarajatlar va zararlar.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning umumxo'jalik faoliyatidan olinan foyda yoki zararlarni aniqlashda xisobga olinadigan xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy faoliyati bo'yicha xarajatlariga quyidagilar kiradi:

- a) foizlar bo'yicha xarajatlar;
- b) xorijiy valyuta bilan operatsiya bo'yicha salbiy kurs tafovutlari;
- c) qimmatli qog'ozlarga quyilgan mablag'larni qayta baholash;
- d) moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar.

Favqulotda zararlar, u daromadlar (foyda) dan olinadigan soliq tugagunga qadar foyda yoki zararlarni xisoblab chiqishda xisobga oliradi.

Yuqorida ko'rib o'tilgan xarajatlarni elementlar va moddalarga xam bo'linadi.

Mahsulot (ish, xizmatlar) ning ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

Ishlab chiqarish bilan bog'liq moddiy xarajatlar;

Ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan mehnatga xaq to'lash xarajatlari;

Ishlab chiqarish tegishli bo'lgan ijtimoiy sug'urtga ajratmalar;

Asosiy vositalar va ishlab chiqarish axamichiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;

Ishlab chiqarish tusidagi boshqa xarajatlar.

Davr xarajatlari (mahsulot tannarxiga kiritilmaydigan xarajatlar):

1.Sotish xarajatlari;

2.Ma'muriy xarajatlari;

3.Boshqa operatsion xarajatlari;

4.Xisobot davrining kelgusida soliq solinadigan bazadan chiqariladigan xarajatlari.

Yuqoridagilarni xisobga olgan xolda g'alla qayta ishlash mahsulotlari tannarxiga kiritiladigan va kiritilmaydigan xarajatlarni ko'rib chiqamiz.

Dastavval paxta tola tannarxiga kiritiladigan xarajatlarni ko'rib chiqamiz. G'alla qayta ishlash mahsulotlari mahsulotining tannarxi chigitli paxtaning xarid qiymatidan xom – ashyo tayyorlash, to'plash uchun va paxtani ishlash uchun qilingan xarajatlardan iborat bo'ladi. Qisqacha qilib aytgan ishlab chiqarish

xarajatlarini quyidagi moddalar xarajtlar yig'indisidan g'alla qayta ishlash mahsulotlarining ishlab chiqarish tannarxi tashkil topadi. Bu quyidagi moddalardan iborat:

- 1.Ish haqi;
- 2.Sug'urta to'lovi;
- 3.Elektr energiyasi;
- 4.Amortizasiya;
- 5.Remont;
- 6.Yoqilg'i;
- 7.O'rov materiallari;
- 8.Transport xarajatlari;
- 9.Boshqa xarajatlar.

Endi g'alla qayta ishlash mahsulotlari tannarxini shakllantiradigan xarajat moddalarining tashkil topish xususiyatlarini ko'rib chiqamiz.

G'alla qiymatining tashkil topishida quyidagi xususiyatlar mavjud. Bu qiymat, g'allani qayta ishlash zavodlari xo'jalik faoliyatiga bog'liq bulmagan xolda, qishloq xo'jaligida g'allani dalalarda yetishtirish bilan bog'liq bo'lgan kompleks xarajatlar yigindisidan tashkil topadi. Lekin bu yerda, paxta zavodlarining ma'lum darajada ta'siri xam bulib, u paxtani qabul qilish punktlarini va g'allani qayta ishlashni xom ashyo ba'zalariga yakinlashtirish yo'li bilan, paxtani idishlarsiz tashish va qabul qilishni tashkil etish yuli bilan, va na fakat sanoatda balki qishloq xo'jaligida xarajatlarni pasaytirishga olib keladigan boshqa chora tadbirlarni kullash orkali namoyon bo'ladi.

Paxta zavodlari, xo'jaliklarga yetishtirish uchun paxtaning serxosil navlarini yunaltirib, xosilni to'g'ri va o'z vaktida yigib-terib olishni tashkil kilib, paxtakor xo'jaliklarning xam naturada, xam qiymat shaklda tovarlilikini oshirishga ta'sir etib, ularning rentabellik darajasini oshirishga o'z xissalarini kushishi mumkin. Shu bilan birga, paxta mahsulotlari chiqishiga va sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan g'allaning navlar bo'yicha tarkibi va sifati, shuningdek xarid baholari va tayyorlov-transport xarajatlari darajasi, g'alla qayta ishlash mahsulotlari tannarxining o'zgarishidagi imkoniyatlardan biri xisoblanadi.

Tahlil natijalaridan ma'lumki, 2009-2010 yillarda, g'allani qayta ishlash ishlab xarajatlari tarkibida qayta ishlangan g'allani sotib olish qiymati 89-93% ni tashkil etadi.

Tayyorlov-transport xarajatlari quyidagi xususiyatlarni xisobga olib aniqlanadi. Tayyorlov-transport xarajatlarini qisqartirishga ikkita asosiy omil ta'sir ko'rsatadi: g'allani zavoddan tashqarida tayyorlashning salmogini pasaytirish, okibatda ortish-tushirish va transport ishlari xajmini kamaytirish va mos ravishda doimiy va mavso'miy ishchilarga, boshqaruv, xamda, tayyorlov bo'limlarida xizmat kiluvchi xodimlarga bo'lgan extiyojni kamaytirish; tayyorlov-transport jarayonlarini mexanizasiyalashtirish yuli bilan mehnat sig'imini pasaytirish. 2009-2010 yillarda bu xarajatlar 7-9% ni tashkil etadi.

Yordamchi mahsulotlar qiymati quyidagilarni xisobga olib aniqlanadi. Uning tarkibiga kepak, omuxta yem kiradi. Unning assortimenti va sifatinig yomonlashishiga olib keladigan sabablar: xom ashyoning o'zok vakt yuqori namlikda saklanishi, oshirilgan navlashtirish, partiyalarni noto'g'ri komplektlashtirish, texnologik jarayonlarning bo'zilishi va boshqalar yordamchi mahsulotning chiqishi va sifatining pasayishiga olib keladi. Ishlab chiqariladigan yordamchi mahsulotning qiymatining pasayishi, o'z navbatida xom ashyoning nisbatan kimmatlashishiga olib keladi va, mos ravishda undan ishlab chiqariladigan g'alla qayta ishlash mahsulotlarining tannarxini oshirishga olib keladi.

Qayta ishlash xarajatlari o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu xarajatlarga urash materiallari, asosiy ishlab sexlari ishchilarining asosiy va kushimcha ish xaklari, ijtimoiy va tibbiy sugurta ajratmalari, umumiy ishlab va umumxo'jalik xarajatlari kiradi. Ularning jami xarajatlardagi salmogi 9-12% ni tashkil qiladi.

Qishloq xo'jaligida aloxida mahsulot turlari bo'yicha tannarxni xisoblashda avvalo asosiy, tutash yoki kushimcha va yordamchi mahsulotlarning turlari bo'yicha miqdori aniqlanadi. Ammo xar bir mahsulot turi bo'yicha ishlab xarajatlarining uchyotini aloxida tashkil kilib bulmaydi. Shuning uchun barcha turdagi mahsulotlar urtasida ishlab xarajatlarini taqsimlashda quyidagi usullardan foydalaniladi:

1.Xarajatlarni bevosita mahsulot turlariga olib borish;

2.Aloxida qishloq xo'jaligi ekinlari turlari mahsulotlari bo'yicha, xayvonlar mahsulotlari turlari uchun umumiy bo'lgan belgilari bo'yicha xarajatlar olinadigan mahsulot turlari uchun umumiy bo'lgan belgilardan birining miqdori ahamiyatiga proporsional taqsimlanadi;

3.Aloxida turdagi mahsulotlarni olishga ketgan xarajatlarni ekspert yuli bilan baholash va ularni ma'lum bir kursatkichlarda aks etdirish;

4.Ma'lum bir ekin (mollar guruxi, turi) dan olinadigan mahsulot turi bo'yicha xarajatlarni, markazlashgan tartibda urnatiladigan iqtisodiy jixatdan asoslangan koeffisiyentlarni kullash yordamida, sentner- koeffisiyent va boshqa shartli birliklarning miqdoriga proporsional taqsimlanadi. Ularni aniqlashda mahsulot turlaridan birining birligiga to'g'ri kelgan xarajat bir deb qabul qilinadi, boshqa mahsulotlar birligiga qilingan xarajatlar shu birlikka nisbatan olinib koeffisiyent kurinishda ifodalanadi;

5.Xarajatlar mahsulotni sotish bahosi bo'yicha baholagandagi mahsulot qiymatiga proporsional taqsimlanadi.

G'allani qayta ishlash zavodlarida asosiy mahsulot un bo'lib, undan keyin olinadigan qo'shimcha mahsulotlar kepak, urug'lik, omixta yem hisoblanadi.

Bu mahsulotlar keyingi qayta ishlash jarayonida xom-ashyo yoki yarim fabrikat shaklida jarayonga tushgani uchun, albatta ularning tannarxini aniqlashda qaysiga qancha xarajat taqsimlanishi muhimdir.

Harakatdagi xarajatlarni taqsimlash tartibi asosan ularning bahosiga proporsional ravishda, ya'ni xarajatlarni taqsimlash koidalarining 5-turiga asosan amalga oshirilgan. Lekin xarajatlar, mahsulotlarni sotishgacha tashkil topishini hisobga oladigan bo'lsak, bu masalaga boshqacharok yondoshishni keltirib chiqaradi va amaldagi tartibga ba'zi bir tuzatishlar kiritishni taqozo qiladi.

5. G'ALLANI QAYTA ISHLASHDA HAYOT FAOLIYATI HAVFSIZILIGI

G'allani qayta ishlash zavodining ishlab chiqarish zonalari ob-havo sharoitiga ta'sir qiluvchi ishlab chiqarish omillari ham mavjud, bular har xil mashina-mexanizmlar va ishlov berilayotgan materiallar yuzalaridan tarqaladigan issiqlik nurlari ham havo haroratini oshirishga olib keladi. Bu omillar ta'siridan hosil bo'ladigan ishlab chiqarish zonasidagi havo muhitini sanoat mikroiqlimi deb yuritiladi.

Ob-havo omillari har biri ayrim holda yoki bir nechasi birlikda insonning mehnat qilish qobiliyatiga, sog'lig'iga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Ishlab chiqarish sharoitida ob-havo omillarni deyarli hammasi bir vaqtda ta'sir qiladi. Ba'zi sharoitlarda bunday ta'sir ko'rsatish foydali bo'lishi, masalan sovuq sharoitda quritish natijasida kamaytirilishi mumkin, ba'zi vaqtlarda esa, bir-biriga qo'shilishi natijasida zararli ta'sir darajasi ortib ketishi mumkin, masalan nisbiy namlik va haroratning ortib ketishi inson uchun og'ir sharoit vujudga keltiradi. Bundan tashqari, ish joylaridagi havo harakatini oshirish harorat yuqori bo'lgan vaqtda ijobiy natija beradi, harorat past bo'lgan vaqtda esa, salbiy natija beradi.

Bundan ko'rinib turibdiki, ob-havo omillari ba'zi bir hollarda inson uchun ijobiy va ba'zi bir hollarda esa, salbiy ta'sir ko'rsatib, inson organizmi tashqi muhitga moslashuvini buzib yuborishi mumkin. Tashqi muhitga moslashuv – bu inson organizmining fiziologik va kimyoviy jarayonlar asosida tana haroratining bir xil chegarada ($36-37^{\circ}\text{C}$) saqlab turish qobiliyati deyiladi.

Ob-havo sharoitining doimo o'zgarib turishi tana haroratining o'zgarmasligini saqlash, inson hayotining asosi bo'lgan organizmdagi biokimyoviy jarayonlarning me'yoriy sharoitini ta'minlaydi. Tana haroratining yuqorida ko'rsatilgan darajadan ortib ketishi issiqlash, sovishi esa, sovish deb ataladi. Issiqlash va sovish hayot faoliyatini buzuvchi halokatli holat vujudga keltirishi mumkin.

Shuning uchun ham inson organizmida tashqi muhit bilan moslashuvi fiziologik mexanizmi mavjud bo'lib, u markaziy nerv sistemasining nazorati ostida bo'ladi. Bu fiziologik mexanizmning asosiy vazifasi organizmida modda

almashinuvi natijasida ajralib chiqayotgan issiqlikning ortiqchasini tashqi muhitga chiqarib, issiqlik balansini saqlab turishdir. Tashqi muhitga moslashuv ikki xil: fizik va kimyoviy bo'lishi mumkin. Kimyoviy tashqi muhitga moslashuv organizmning issiqlash davrida modda almashinuvini kamaytirishi va sovishi natijasida modda almashinuvini oshirishi mumkin. Ammo kimyoviy tashqi muhitga moslashuv tashqi muhitning keskin o'zgartirishi borasida fizik tashqi muhitga moslashuvga nisbatan ahamiyati katta yemas. Asosan tashqi muhitga issiqlikni almashtirishga fizik tashqi muhitga moslashuvning ahamiyati katta.

Ishlab chiqarish mikroiqlimi me'yorlari mehnat xavfsizligi standartlari sistyemasi «Ish zonasi mikroiqlimi» bilan asosan belgilangan. Ular gigiyenik va texnik iqtisodiy negilariga asoslangan.

G'allani qayta ishlash zavodining xarakteri, yil fasllari va ish kategoriyasiga qarab, ulardagi harorat, nisbiy namlik va havo harakatining ish joylari uchun ruxsat yetilgan me'yorlari belgilangan.

Ish kategoriyalari quyidagicha belgilanadi: yengil jismoniy ishlar (1-kategoriya)-o'tirib, tik turib yoki yurish bilan bog'liq holda bajariladigan, biroq muntazam jismoniy, zo'riqish yoki yuklarni ko'tarishni talab qilmaydigan ishlar, energiya sarfi soatiga 150 kkal (172 J.s) ni tashkil etadi. Bunga tikuvchilik korxonasi, aniq asbobsozlik va shu kabi korxonalar kiradi.

O'rtacha og'irlikdagi jismoniy ishlar (2-kategoriya)-soatiga 150-250 kkal (172-293 j.s) energiya sarflanadigan faoliyat turlari kiradi. Bunga doimiy yurish va og'ir bo'lmagan (10 kg gacha) yuklarni tashish bilan bog'liq bo'lgan ishlar kiradi. Masalan, yigiruv-to'qish ishlari, mexanik-yig'uv, payvandlash sexlaridagi ishlar shular jumlasidandir.

Og'ir jismoniy ishlar (3-kategoriya)-muntazam jismoniy zo'riqish, xususan og'ir yuklarni (10 kg dan ortiq) muttasil bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish va ko'tarish bilan bog'liq ishlar kiradi. Bunda energiya sarfi soatiga 250 kkal (293 js)dan yuqori bo'ladi. Bunday ishlar tyemirchilik, quyuv va boshqa qator sexlarda bajariladi.

Harorat nisbiy namlik va havo harakatining tezligi risoladagi va yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan miqdorlar ko'rinishida me'yorlanadi. Risoladagi miqdorlar deganda odamda uzoq muddat va muntazam ta'sir qilganda tashqi muhitga moslashuv reaksiyalarini kuchaytirmasdan organizmning me'yori faoliyatini va issiqlik holatini saqlashini ta'minlaydigan mikroiklim ko'rsatkichlarining yig'indisi tushunilib, ular issiqlik sezish mo'tadilligini vujudga keltiradi va ish qobiliyatini yuksalitirish uchun shart-sharoit hisoblanadi. Yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan mikroiklim sharoitlari organizmning faoliyatini va issiqlik holatdagi o'zgarishlarini, fiziologik moslanish imkoniyatlaridan chetga chiqmaydigan tashqi muhitga moslashish reaksiyalarining kuchaytirishini bartaraf yetadigan va tez me'yorga soladigan mikroiklim ko'rsatkichlarining yig'indisidir. Bunda sog'liq uchun xatarli holatlar vujudga kelmaydi, biroq nomo'tadil issiqlik sezgilari, kayfiyatning yomonlashuvi va ish qobiliyatining pasayishi kuzatilishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq g'allachilikni ustivor rivojlantirishga e'tibor berilgani, g'alla mustaqilligiga erishish bo'yicha Milliy dasturni qabul qilinishi, don harid qilish bo'yicha davlat buyurtmasi salmog'i kamaytirilib davlat xarid narxlarini oshirib borish, g'allachiligini ruvojlantirishni davlat siyosat darajasigi ko'tarilgandan dalolatdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning ta'kidlaganidek, «Bizning necha o'n yillar davomida orzu va havas qilib kelgan g'alla mustaqilligiga erishganimizni keyingi yetti-sakkiz yil mobaynida amalda tasdiqlab kelayotganimizni, bunday ulkan yutuqning ahamiyati va mohiyatini g'alla degan, non degan bebaho ne'matdan bahramand bo'ladigan har qaysi inson, shu yurtda yashaydigan har qaysi oila so'zsiz chuqur anglaydi va yuksak baholaydi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

G'allachilik samaradorligini oshirish uchun mavjud imkoniyat va salohiyatlardan samarali foydalanishda avvalo tarmoqda g'allaga davlat buyurtmasining saqlab qolinishi, ortiqcha g'allaning erkin sotilishi, resurslar bilan ta'minlashdagi turlicha yondoshuvlar mamlakatda g'alla bozorini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy munosabatlar tubdan takomillashtirilishini ustuvor vazifalardan biriga aylantirdi.

Bu esa, o'z navbatida, g'allachilik tarmog'ida shakllangan iqtisodiy munosabatlarning holati va samaradorlik darajasini tahlil etish, ularga ta'sir etuvchi omillarni chuqur o'rganish asosida g'allachilik tarmog'ini yanada rivojlantirish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish va soha samaradorligini oshirishga bag'ishlangan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishni taqozo etadi.

Tadqiqotlarimiz davomida quyidagi xulosalarga keldik:

1. Jamiyatda mahsulot sotishdan tushgan sof pul tushumi tahlil qilinayotgan davrlarda oshib borish suratiga erishgan. 2013 yil yalpi pul tushumi 61235670 ming so'm bo'lib, 2010 yilga nisbatan 26527470 ming so'mga yoki 76,4% ga

oshgan. Sotilgan mahsulot tannarxi 2013 yil 52248705 ming so`m bo`lib 2010 yilga nisbatan 67,5 % ga yani 21058325 ming so`mga oshgan. Jamiyat mahsulot sotishdan 2013 yilda 8986965 ming so`m yalpi foyda olishga erishgan. Ushbu ko`rsatkich 2010 yilga nisbatan 5469145 ming so`mga yoki 2,5 martaga oshirilishiga erishgan.

Jamiyat 2013 yil davr xarajatlariga 7267794 ming so`m sarf qilishgan va bu xarajat turi 2010 yilga nisbatan 4393504 ming so`mga yoki 2,5 martaga oshgan. Davr xarajatlarining asosiy qismi operasion xarajatlarga sarf qilingan. Davr xarajatlarining usish surati ma`muriy xarajatlarida ko`proq kuzatilgan, 2013 yil 2010 yilga nisbatan 2,8 martaga oshgan.

Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari yillar davomida kamayib borganligini kuzatildi. 2013 yil 2010 yilga nisbatan 3143 ming so`mga yoki 6,2 % ga kamaygan.

Moliyaviy faoliyatning daromadlari va xarajatlari o`rsatidagi farq natijasi bilan umumxo`jalik faoliyatining foydasi aniqlandi. Unga ko`ra 2013 yil 1429981 ming so`m bo`lib, 2010 yilga nisbatan 969084 ming so`mga yoki 3,1 martaga oshgan.

Jamiyatda tahlil qilinayotgan yillarda favqulotdagi foyda va zararlar umuman kuzatilmagan. Buning natijasida jamiyatda daromad (foyda) solig`i to`langunga qadar foyda (zarar) umumxo`jalik faoliyatining foydasi bilan bir xil bo`lishiga olib kelgan.

Jamiyat daromad solig`i hamda boshqa soliqlar va jig`imlar to`lovini amalga oshirib, sof foydaga erishishgan. Sof foyda jamiyatda 2013 yil 1389775 ming so`m bo`lib, 2010 yilga nisbatan 956077 ming so`mga yoki 3,2 martaga oshgan.

Korxonada rentabellik darajasi sof foydaga nisbatan xisoblanganda 2010 yil 1,39%, 2011 yil 1,47%, 2012 yil 2,39%, 2013 yil 2,66% bo`lib, 2013 yil 2010 yilga nisbatan 1,27 punktga oshgan.

2. Jamiyat tomonidan ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot 2013 yil 2012 yilga nisbatan 11698530 ming so`mga yoki 23,6 % ga oshgan. 2011 yil yalpi mahsulot 2010 yilga nisbatan 5826066 ming so`mga yoki 16,8 % ga oshirilgan.

Jamiyatda mahsulot tannarxi xam usib borganligi kuzatildi. Unga ko`ra 2013 yil 2012 yilga nisbatan 9995799 ming so`mga yoki 23,7 % ga oshgan. Ushbu ko`rsatkich 2011 yil 2010 yilga nisbatan 549656 ming so`mga yoki 17,5 % ga oshgan.

Natijada yalpi foyda 2013 yil 8986965 ming so`m bo`lib, 2012 yilga nisbatan 23,4 % ga oshgan. 2011 yil 2010 yilga nisbatan yalpi foyda 366410 ming so`mga yoki 10,4 % ga kamaygan.

Jamiyatda o`rtacha yillik xodimlar soni tahlil qilinayotgan yillarda kamayganligini kuzatish mumkin. 2013 yil 487 kishi mehnat qilgan bo`lsa, 2012 yilga nisbatan 55 kishiga yoki 10,1 % ga kamaygan. Xodimlarning o`rtacha yillik soni 2011 yilda 563 kishi bo`lib, 2010 yilga nisbatan 9 kishiga yoki 1,6 % ga oshgan. Buning natijasida mehnat unumdorligi oshib borishi kuzatilgan. Omillar tasiri sifatida qaraganda ushbu 2 omil yani mehnat resurslari va yalpi mahsulor ijobiy ta`sir ko`rsatgan. 1 o`rtacha xodim xisobiga 2013 yil 125741 ming so`mlik yalpi mahsulot ishlab chiqarilgan bo`lib, 2012 yilga nisbatan 37,6 % ga oshgan. Ushbu mehnat unumdorligi ko`rsatkichi 2011 yil 71997 ming so`m bo`lib, 2010 yilga nisbatan 14,9 % ga oshgan.

Jamiyatda o`rtacha yillik asosiy vositalar qiymati 2013 yil 17547471 ming so`m bo`lib, 2012 yilga nisbatan 5102456 ming so`mga yoki 41 % ga oshgan. 2011 yil 2010 yilga nisbatan esa 991130 ming so`mga yoki 12,2 % ga oshgan. Jamiyatda fond qaytimi 2013 yil 3,49 bo`lib, 2012 yilga nisbatan 0,49 yoki 12,3 % ga kamaygan. Fond qaytimi 2011 yil 4,44 bo`lib, 2010 yilga nisbatan 0,18 ga yoki 4,2 % ga kamaygan. Fond qaytimiga teskari bo`lgan fond sig`imi ko`rsatkichi 2013 yil 0,29 bo`lib 2012 yilga nisbatan 0,04 ga yoki 16 % ga, 2011 yil 2010 yilga nisbatan o`zgarmagan.

Jamiyatda rentabellik darajasi 2012 yil 17,2 %, 2013 yil 17,2 % bo`lib, 2013 yil 2012 yilga nisbatan o`zgarmagan. 2011 yil esa 10,6 % bo`lib, 2010 yilga nisbatan 0,7 punktga kamaygan.

3. Jamiyat tomonidan 2012 yil un ishlab chiqarish 58186 tonna bo`lib, un ishlab chiqarish uchun 9040758,5 ming so`mlik yordamchi materiallar sarf

qilingan. Bundan tashqari un ichlab chiqarishda band bo'lgan xodimlarga 1404719,9 ming so'mlik ish haqi ajratilgan. Ishlab chiqarish jarayonida foydalanilgan elektr energiyasiga 735239 ming so'm sarflangan.

Ijtimoiy sug'urta xarajatlariga 56188,8 ming so'm, boshqa xarajatlarga esa 26764119 ming so'm sarflangan. Natijada umumiy un mahsulotlari tannarxi 29901025 ming so'mni tashkil qilib, jamiyat 4006328,7 ming so'm yalpi foyda olishga erishgan. Jamiyat ishlab chiqarayotgan 1 tonna unning sotish bahosi 582741 so'm. 1 tonna unning tannarxi 513887 so'm bo'lib natijada 1 tonna un sotish 68854 so'm foyda bilan yankunlangan. Un ishlab chiqarish rentabelligi 13,4% ni tashkil qilgan.

Jamiyat tomonidan omixta yem ishlab chiqarishda jami 8047209,2 ming so'm sarf qilinib, shundan elektr energiyaga 101199,7 ming so'm, ish xaqiga 502643,6 ming so'm, ijtimoiy sug'urta xarajatiga 20105,7 ming so'm, boshqa xarajatlarga 7423260,2 ming so'm safr qilingan.

Ushbu xarajatlarning salmoqli qismini 92,2%i boshqa xarajatlarga egallagan. Davr xarajatlari jamiyatda 2317694 ming so'm bo'lib, omixta yem ishlab chiqarishdan 292399 ming so'm sof foyda olinishiga erishilgan. 1 tonna omixta yemning sotish bahosi 265111 so'm, tannarxi esa 197260 so'm bo'lib, 1 tonna omixta yemdan olingan foyda 67852 so'm, natijada rentabellik darajasi 34,4 % bo'lishiga erishilgan.

Jamiyatning asosiy ishlab chiqarish mahsulotlaridan biri urug'lik tayyorlashdir. Urug'lik tayyorlash jarayoniga jamiyat 3951414,8 ming so'm sarf-xarajat qilgan. Ushbu xarajatlardan yordamchi materiallarga 194992,7 ming so'm, elektr energiyaga 5594 ming so'm, ish xaqiga 176672,5 ming so'm, ijtimoiy sug'urta xarajatlariga 7066,9 ming so'm, boshqa xarajatlarga 3567088,7 ming so'm sarf qilingan. Jamiyat urug'lik tayyorlashdan 509896,4 ming so'm yalpi foyda va 53862,9 ming so'm sof foyda olishga erishgan. 1 tonna urug'likning sotish bahosi 848319 ming so'm bo'lib, tannarxi 751362 so'm. 1 tonna urug'lik sotishdan olingan foyda 96957 so'm bo'lishi rentabellik darajasining 12,9% bo'lishiga olib kelgan.

Jamiyat 2012 yil barcha turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish uchun 42252906 ming so'm sarf qilib, 7284234 ming so'm yalpi foyda, 769471 ming so'm sof foyda olishgan. 2012 yilda jamiyat davr xarajatlariga 5942806 ming so'm sarf qilingan. Yakuniy samaradorlik ko'rsatkichi xisoblangan rentabellik darajasi 2012 yilda 17,2% bo'lishiga erishilgan.

4. Biz jamiyatda mehnat rasurslaridan foydalanish samaradorligini aniqlash va tahlil qilish uchun yalpi mahsulot qiymatidan foydalandik. Jamiyatda o'rtacha yillik xodimlar soni esa 2010 yil 554 kishi, 2011 yil 563 kishi, 2012 yil 563 kishi, 2013 yil 487 kishi bo'lib, 2013 yil 2012 yilga nisbatan 55 kishiga yani 9,1% ga, 2011 yil 2010 yilga nisbatan esa 9 kishiga yani 1,6% ga xodimlar kamaygan. O'rtacha 1 xodim xisobiga 2010 yil 62650 ming so'm, 2011 yil 71997 ming so'm, 2012 yil 91397 ming so'm, 2013 yil 125741 ming so'mlik yalpi mahsulot yaratilgan. Ushbu ko'rsatkich 2013 yil 2012 yilga nisbatan 37,6%, 2011 yil 2010 yilga nisbatan 14,9% ga oshirilishiga erishilgan.

5. Jamiyatning asosiy vositalardan foydalanish samaradorligining xozirgi xolati tahlil qilingan bo'lib, unga ko'ra jamiyatda asosiy vositalar o'rtacha qiymati 2010 yil 8141329 ming so'm, 2011 yil 9132459 ming so'm, 2012 yil 12445015 ming so'm, 2013 yil 1754741 ming so'm bo'lib, 2013 yil 2010 yilga nisbatan 9406142 ming so'mga yoki 2,2 martaga oshgan. Jamgarilgan eskirish summasi 2013 yil 7149717 ming so'm bo'lib, 2010 yilga nisbatan 3565515 ming so'mga yoki 1,9 martaga oshgan. Natijada yil boshiga qoldiq qiymat 2013 yil 8555316 ming so'm bo'lib, 2010 yilga nisbatan 4697432 ming so'mga yoki 2,2 martaga oshgan.

Jamiyatda asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini belgilovchi ko'rsatkich fond qaytimini tahlil qilar ekanmiz, 2013 yil fond qaytimi 3,48 bo'lib 2010 yilga nisbatan 0,76 ga yoki 17,8%ga kamaygan. Tahlil qilingan yillarda eng samarali fond qaytimi 2011 yilda kuzatilgan.

Fond sig'imi ko'rsatkichi esa 2013 yil 0,29 bo'lib, 2010 yilga nisbatan 0,06 ga oshgan. Fond sig'imi ko'rsatkichi tahlil qilingan yillarda yildan yilga oshib borilgani aniqlandi.

Tadqiqotni amalga oshirish natijasida g'allani qayta ishlash korxonasining rivojlanishini hamda iqtisodiy samaradorligini barqaror yuksalishini ta'minlashga qaratilgan quyidagi takliflar berdik:

1. Kelajakda hozirgi g'alla yetishtiruvchi xo'jaliklar va g'allani qayta ishlash korxonalarini o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirishda bir qancha quyidagi qulayliklari, afzalliklari namoyon bo'ladi:

- Ishtirokchilar tomonidan g'allachilik pirovard mahsulotining sifatini yaxshilashga erishiladi;
- Ishtirokchi korxonalar manfaatlari birligi ta'minlanadi;
- Urug'chilik ishlari yaxshilanadi, xo'jalik va zavodlar urug' yetishtirishga ixtisoslashadi;
- Mavjud resurslar salohiyatidan foydalanish yaxshilanadi;
- Pirovard mahsulotni ishlab chiqarishdagi moddiy javobgarlik va moddiy manfaatdorlik to'g'ri yo'lga qo'yiladi;
- Pirovard foydani taqsimlash va qayta taqsimlash adolatlilik tamoyili asosida amalga oshiriladi.

2. G'allakor xo'jaliklar va g'allani qayta ishlash korxonalarining samarali faoliyat ko'rsatishi xom-ashyoning miqdori, uni qayta ishlash korxonalariga yaqin uzoqligi, tayyorlash punktlarining joylashganligi va zavodlarning xizmat ko'rsatish doirasining chegarasiga bog'liq ekan.

Shuningdek, eng avvalo fermer xo'jaliklarining hudud jixatidan maydonining kichikligi va ikkinchidan g'alla ishlab chiqarish hajmining kamligidir.

Shuning uchun, tayyorlov punktlarini quyidagi zaruriyatdan kelib chiqqan holda g'allani qayta ishlash zavodlari o'rtasida qayta taqsimlash zarur:

- G'allani tashish masofasini qisqartirish;
- G'alla ishlab chiqaruvchi xo'jaliklar tomonidan g'allani elevator qoshidagi tayyorlov punktlariga tranzit usulda yetkazib berish hissasini ko'paytirish;
- Ortiqcha xom ashyo keltirishni yo'qotish va uni teng taqsimlab yil davomida zavodlarining bir tekis ishlashini ta'minlash.

3. G'allachilik agrosanoat majmuasi mahsulotlarining rentabellik darajasini tijorat xo'jalik hisobi tamoyillariga mos tashkil etish uchun:

a) Barcha turdagi tovar mahsulotlari birligining to'liq tannarxi hisoblanishi zarur. Uning tarkibiga bevosita va bilvosita ishlab chiqarish va davr xarajatlari, favqulodda tashkil topgan zararlar, barcha turdagi soliqlar, shu jumladan, qo'shilgan qiymat solig'i, lisenziya, bojxona va turli xil to'lovlar kiritilishi zarur.

b) Sotilgan mahsulotlardan olingan yalpi pul tushumi alohida-alohida hisoblanishi zarur. Uning tarkibiga sotilgan mahsulotlar qiymati, sug'urta qaytimi, ijara haqlari va boshqa pul tushumlari ham kiritilishi lozim.

4. Jamiyatda mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish uchun "Uzdonmahsulot" AK tomonidan ilgari surilayotgan ishlarni avtomatlashtirishga erishilishi lozim. Bunda ilmiy asoslangan samarali texnologiyalarni tanlashga doir ilmiy ishlar natijasini ishlab chiqarishga joriy etilishi lozim.

5. Jamiyatda asosiy vositalardan samarali foydalanish yo'llari sifatida shuni takidlashimiz kerakki, kelgusida ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish chora-tadbirlarini amalga oshirish lozim. Xozirda jamiyatning oldida turgan muommalardan biri xam imkoniyatlardan to'liq foydalanilmayotganligidir. Bunda jamiyat qabul qilgan g'alla xom-ashyosi etishmasligi va qabul qilingan xom-ashyoning bir qismi turdosh g'alla qayta ishlobchi korxonalarga ko'chirilishidir. kelgusida jamiyat xom-ashyo emas, tovar mahsulot sotish imkoniyatidan foydalanilsa nafaqat asosiy vositalardan foydalanish samaradorligi oshishiga erishiladi, balkim samaradorlik ko'rsatkichlarining keskin yaxshilanishiga erishiladi.

6. Jamiyatda rentabellikni oshirish uchun mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish imkoniyatlaridan biri qadoqlash xarajatlarini kamaytirish imkoniyatlaridan foydalanish muximligi bilan dolzarbdir. Bunda 45 kg un qoplashni 50 kg.ga uzgartirilishi tannarxni pasaytirish imkoniyatini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. –T.: O'zbekiston, 2008 (yangi tahriri)
2. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Fermer xo'jaligi to'g'risida. (Yangi tahrirda). // Xalq so'zi, 26.08.2004.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Oziq-ovqat ekinlari ekiladigan maydonlarni optimallashtirish va ularni yetishtirishni ko'paytirish chora-tadbirlari to'g'risida. PF–4041. 20.10.2008.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Xorijiy investisiyalar va kreditlarni jalb etish hamda o'zlashtirish jarayonini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. PQ–927. 24.07.2008.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Tadbirkorlik faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. PQ–1112. 15.05.2009.
6. Boshqoli don ekinlari urug'ini yetishtiruvchi xo'jaliklarni, shunidek ilmiy muassasalar – navlar originatorlarini, seleksiya va urug'chilik sohasi olimlarini rag'batlantirish to'g'risidagi Nizom. 5.08.2009.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili Davlat dasturi to'g'risida. PQ-1474. 7.02.2011.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga kredit berishni ko'paytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. PQ-1501. 11.03.2011.
9. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari – oliy qadriyat. T.14 -T.: O'zbekiston, 2006. -271 b.
10. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. –T.: O'zbekiston, 2009.
11. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – Prezident Islom Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning

eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 30.01.2010.

12. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizasiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. – Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 28.01.2010.

13. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi: Prezident Islom Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi// Xalq so'zi. 22.01.2011

14. Abdullayev A.A., Aybeshov X.A. Fermer xo'jaligi iqtisodi. –Andijon: Aloqachi, 2008. -187 b.

15. Azizqulov B. Ilg'or texnologiyalar iqtisodiy samaradorligi// O'zbekiston qishloq xo'jaligi. –Toshkent, 2008. -№ 9. -35-b.

16. Ismoilov A., Murtazayev O. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. –T.: Moliya, 2005.

17. Mahmudov H. Doni mo'l elning rizqi butun//O'zbekiston qishloq xo'jaligi. –Toshkent, 2009. -№9. -2-b

18. Murtazayev O., G'aniyev I., Hasanov Sh., Axrorov F. Agrar siyosat va qishloq xo'jalik bozorlari. –Samarqand: N.Doba, 2009.

19. Musayev D., Yaxshilikov Yo., Yusupov Q. O'zbekistonda oziq-ovqat havfsizligi. –T.: Mega Basim, 2010.

20. Nuriddinova Sh. Qishloq xo'jaligidagi islohotlarning natija va istiqbollari//O'zbekiston qishloq xo'jaligi. –Toshkent, 2010. -№ 11. -24-b.

21. Umurzoqov U.T., Toshboyev A.Sh., Rashidov Sh., Toshboyev A.A. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va menejmenti. –T.: Iqtisod-moliya, 2008. -267 b.

22. Umurzoqov O', Toshboyev A. Fermer xo'jaliklari iqtisodiyoti. –T.: 2008

23. Toshxo'jayev T. Don yetishtirishda mahalliy va mineral o'g'itlarning roli //Agro ilm – O'zbekiston qishloq xo'jaligi. –Toshkent, 2007. -№2. -22-23-b.

24.Xodiyev B.Yu. va boshqalar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2009. – 120 b.

25. Ergashev R.X. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. –T.: EXTREMUM PRESS, 2011. -416 b.

26. Eshmirzayev Q., Amanturdiyev B. G'allazorlardagi erta bahorgi yumushlar//O'zbekiston qishloq xo'jaligi. –Toshkent, 2010. -№2. -3-b.

27. Yusupov X. va boshqalar. G'allachilikda suv va o'g'itning o'rni//O'zbekiston qishloq xo'jaligi. –Toshkent, 2009. -№10. -13-b.

28. Qilichev A. G'alla hosildorligi va don sifati ekish muddati va me'yorlariga bog'liqligi. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi. –Toshkent, 2008. -№6. -15-b.

29. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining o'rinbosarlari, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha yordamchilari, tuman va shahar hokimlarining mintaqaviy syeminarlari materiallari, 2010 yil.

30. Qudratov T. O'simlikchilik va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish samaradorligining statistik tahlili. - Samarqand, 2010.

31. "Jomboydonmahsulot" OAK statistik ma'lumotlari

32. Internet saytlari:

34.1. www.agro.uz – Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi sayti

34.2. www.uzdon.uz – O'zdonmahsulot AK sayti

34.3. www.edu.uz - Oliy ta'lim sayti

34.4. www.lex.uz –qonun hujjatlari sayti

34.5. www.mineconomy.uz - Iqtisodiyot vazirligi ma'lumotlari

- 34.6. www.mfer.uz – Tashqi iqtisodiy aloqalar, investisiyalar va savdo vazirligi sayti
- 34.7. www.samqxi.uz – Samarqand qishloq xo'jalik instituti sayti
- 34.8. www.press-service.uz – Prezident matbuot markazi sayti
- 34.9. www.usda.gov – AQSh qishloq xo'jalik departamenti sayti
- 34.10. www.uz.bir.uz – Biznes informasion resurslar saytlari
- 34.11. www.uza.uz – O'zbekiston Axborot agentligi sayti
- 34.12. www.uzreport.com – biznes hisobot portali
- 34.13. www.ziyonet.uz – Ziyonet ta'lim portali